

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
IYUN  
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
10-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-10**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 90 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Komiljonova Zilola Ikromboyevna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI .....	8
<b>2. Otajonova Shoira</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI .....	10
<b>3. Madaminova Muazzam Ikromjonovna</b>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING O 'RNI .....	12
<b>4. Ermatova Yoqutxon Asildinovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFATLARNING OTGA BOG'LANISHINI O'RGATISHDA INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH .....	14
<b>5. Sultanova Ozoda Abduqaxxarova</b>	
TA'LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH ( XAR BIR BOLAGA ALOXIDA YONDASHISH ) .....	16
<b>6. Abdulazizova Soxiba Nematullayevna</b>	
JISMONIY MASHQLAR BILAN BIRGA AMALGA OSHIRILADIGAN CHINIQTIRISH TADBIRLARI .....	18
<b>7. Xasanova Hamrohon Эргашевна</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОСНОВНЫХ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕДМЕТА ФИЗИКИ .....	20
<b>8. Oripova Manzura Mahmutaliyevna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O'QITISH .....	22
<b>9. Алимова Ф.А</b>	
ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ .....	24
<b>10. Feruza Abdurahmonova</b>	
ONA TILI DARSLARIDA IBORALARDAN FOYDALANISH .....	26
<b>11. Abduraimova Gulnora Orifxoja qizi</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	28
<b>12. Achilova Dilfuza Saparboyevna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI .....	30
<b>13. Djumaniyozova Rushona Bahtiyorovna, Bobojonova Fazilat G'ayrat qizi</b>	
MUSIQA ILMINING TA'SIRCHANLIK XUSUSIYATLARI .....	32
<b>14. Ibragimov Tohir Rustamovich</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLRDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH .....	34
YUKSALISH – O'ZLIKNI ANGLASHDAN BOSHLANADI .....	36
<b>15. Islomova Saodat Abduxalilovna</b>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ODAMIYLIK FAZILATLARINING ULUG'LANISHI .....	38
<b>16. Ismoilova Nasiba</b>	
MTTDA MASHG'ULOTDAN TASHQARI VAQTDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHISH .....	40
<b>17. Norxonova Felura Narimonovna, Jumabayeva Shohista Raxmatullayevna</b>	
ALGEBRA FANINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI .....	42
<b>18. Madatov Xabibulla Axmedovich, Sattarova Sapura Beknazarovna</b>	
PYTHON DASTURIDA KOMPYUTER TILSHUNOSLIGIGA DOIR BA'ZI MASALALARNING YECHILISHI .....	44
<b>19. Masayidova Zulfiya Shamuradovna, Alimova Gulondan Karimovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH .....	47
<b>20. Masharipova Oygul Sadullayevna, Rahmatillayeva Dildora Otanazar qizi</b>	
MAKTABLARDA TASVIRIY SAN'AT FANI BO'YICHA O'QUVCHILARDA SHAKLLANISHI LOZIM BO'LGAN KO'NIKMALAR .....	48
<b>21. Nekova Mashhura Komiljonovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA NUTQ O'SТИRISH .....	50

# МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

---

<b>22. Abdulxay Qosimov, Nasibullo Qurbonov, Alimardon Toshmatov</b>	
ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARNING IKKINCHI TILNI O'QITISHDAGI O'RNI.....	52
<b>23. Qulmatova Maxfuza Xatamovna, Ochilova Nigora</b>	
GRAMMATIKANING ONA TILI O'QITISHDAGI O'RNI .....	54
<b>24. Rajabova Omangul Xudoyberganovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O'QITISH METODIKASI.....	56
<b>25. Rajabova Rayxonoy Ravshanbek qizi, Adamova Nasiba Komilovna</b>	
O'QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI RIVOLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI .....	58
<b>26. Rimma Ramilevna Zamilova</b>	
A MODEL OF HISTORICAL THINKING OF A HISTORY TEACHER THROUGH A HISTORICAL AND ARTISTIC WORK.....	60
<b>27. Roziqova Maloxat Abdumuxtorovna</b>	
BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'ZARO HAMKORLIGINI OSHIRISH CHORA TADBIRLARI VA AHAMIYATI .....	62
<b>28. Shodiyeva Umidaxon Baxtiyorovna</b>	
AL-XORAZMIY - MATEMATIK OLIM .....	64
<b>29. Shokirova Markhabo Sharifovna, Juraeva Hidoyatkhon Maksudovna</b>	
METHODOLOGICAL OPPORTUNITIES TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION .....	66
<b>30. Sodiqova Arofatxon Raxmonovna</b>	
IJTIMOIY KOMMUNIKATIV MALAKANING BOLALARNING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA TUTGAN O'RNI.....	68
<b>31. Xalilova Saboxat Isroiljanovna</b>	
BOLALARNI ERTAKLAR SAHNALASHTIRISHDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHGA QO'YILGAN DAVLAT TALABLARI.....	70
<b>32. Xudoyqulova Shoira Jo'raqulovna</b>	
"HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIY XUSUSIYATLARI .....	72
<b>33. Дониев Э.Т.</b>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМДА МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ БЎЙИЧА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	74
<b>34. Игамбердиева Шахноза Адхамовна</b>	
ИЖОДИЙ ҲАМКОРЛИК КОНЦЕПЦИЯСИ .....	76
<b>35. Каримова Салиба</b>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ СВЯЗНОЙ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ .....	78
<b>36. Курбонов Умидбек Косимбоевич</b>	
KASB-ХУНАРГА ЎҚИТИШ ТАМОЙИЛЛАРИ .....	80
<b>37. Alijonova Nozimaxon Soliyevna</b>	
RATSIONAL VA IRRATSIONAL TENGLAMALARNI YECHISH METODIKASI .....	82
<b>38. Babayeva Sharofat Usmonovna.</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMYUTERDAN FOYDALANISH.....	84
<b>39. Bekchanova Nilufar Xudarganovna</b>	
MAKTAB O'QUVCHILARНИ KIMYO FANINIGA QIZIQISHINI OSHRISHDA «RUCHKA STOL O'RTASIDA» INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH .....	85
<b>40. Nurjonova Ro'za Rajabboyevna.</b>	
UMUMTA'LIM MAKTABLERLARDA KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYANING O'RNI.....	86
<b>41. Babaxonova Saodat Hakimboyevna, Quryazova Ruxsora Madamin qizi.</b>	
METHODS OF USING GAME TECHNIQUES AT THE ENGLISH LANGUAGE LESSONS AT SCHOOL.....	87



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINF DAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Komiljonova Zilola Ikromboyevna,**  
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 8-maktab  
boslang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boslang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lumotlarini oshirish, darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko‘maklashishi hamda sinftashqari mashg‘ulotlarning afzalliklarida xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** sinfdan tashqarimashg‘ulotlar, o‘quvchilar jamoalari, o‘z–o‘zini boshqarish, g‘amxo‘r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boslang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boslang‘ich mакtabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur. Sinf dan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Sinf dan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda oлган bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boslang‘ich mакtabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinf dan tashqari ishlarining ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtida barcha mакtablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinf dan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinf dan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga oлgan holda o‘tkaziladi;

2. Sinf dan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Ziyaraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o‘rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinf dan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyarakliklarini rivojlantirish;



**Sinfdan tashqari ishlarning shakllari:**

-Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘sishimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta’limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘sishimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

-Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko‘mak beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf ona tili va matematika darslarida va o‘qish darslarida, sinfdan tashqari o‘qish tartibida tashkillanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL  
ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Otajonova Shoira,  
Xorazm viloyati Xonqa tumani  
8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon: +998976007252

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lumotlarini oshirish, darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko‘maklashishi hamda sinftashqari mashg‘ulotlarning afzalliklarida xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** sinfdan tashqarimashg‘ulotlar, o‘quvchilar jamoalari, o‘z–o‘zini boshqarish, g‘amxo‘r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlarni bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarning ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlarni sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarning davomi bo‘ladi, ayrim vaqlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtida barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruuhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olni holda o‘tkaziladi;
2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Ziyaraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o‘rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarni orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyarakliklarini rivojlantirish;

**Sinfdan tashqari ishlarning shakllari:**

-Sinfdan tashqari ishlarni ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingan bilim va malakalarini mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘shimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta‘limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

-Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil



fikrlashiga zamin hozirlash.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko‘mak beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf ona tili va matematika darslarida va o‘qish darslarida, sinfdan tashqari o‘qish tartibida tashkillanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING O ‘RNI

**Madaminova Muazzam Ikromjonovna**

Norin tuman 26-MTT tarbiyachisi.

Tel: 99-93678-58-83

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik omilalarni o’rganish yo’llari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, shakllanish, xususiyat, tarbiyachi, psixik sifatlar.

Bola jismoniy taraqqiyotining 3 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan davrini qamrab oluvchi maktabgacha ta’lim yoshida psixik rivojlanishda ham katta o’zgarishlar ro’y beradi. Bu davr mobaynida bola shaxsini belgilab beruvchi xususiyatlar shakllanadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanish nuqtayi nazaridan qaraganda maktabgacha yoshdagi davrini uch bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – 3–4 yoshni o‘z ichiga oladi va ushbu bosqich bolada emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liq.

Ikkinci bosqich – 4–5 yoshgacha bo’lgan davr asosan axloqiy jihatdan o‘zini-o‘zi boshqarishi kuchayadi.

Uchinchi bosqich – 6–7 yoshni qamrab olib bolada ishbilarmonlik, o‘z-o‘zini anglash, shaxs xususiyatlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Bu davrlashtirish jihatidan qaralganda birinchi va ikkinchi bosqichlar kichik va o‘rta bog‘cha yoshiga, 3-bosqich esa katta maktabgacha yoshiga to‘g‘ri keladi.

Bola rivojlanib borar ekan yangi psixik sifatlarni va xulq-atvor ko‘rinishlarini o‘zlashtiradi. Shu tariqa u shaxsga, jamiyatning kichik bir a’zosiga aylanadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola butunlay shakllanib ulgurmagan va keyinchalik kamol topishga qodir bo’lgan shaxs hisoblanadi, lekin bunga qaramay bolada nisbatan barqaror ichki dunyo shakllanadi-ki, u bolani ilk bora shaxs deb atashga asos bo‘la oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sharoitlari avvalgi yosh bosqichidan jiddiy farq qiladi. Kattalar tomonidan bolaning xulqiga bo’lgan talablar sezilarli darajada oshadi. Jamiyatda barcha uchun majburiy bo’lgan axloq qoidalariga, ijtimoiy odob normalariga amal qilish asosiy talabga aylanadi. Atrofmuhitni bilish imkoniyatlarining o‘sishi, bolani yaqinlari tashkil qilgan tor doiradan olib chiqadi va o‘zaro munosabatlar shaklini ilk bora o‘zlashtira boshlaydi. Bola o‘zaro munosabatlar shaklini ilk bora kattalarning ta’lim, mehnat kabi asosiy faoliyati turlarida o‘zlashtirib boradi. Bola tengdoshlari bilan birga o‘ynaydi, o‘z harakatlarini tengdoshlarining harakatlari bilan muvofiqlashtirishni, o‘rtoqlarining qiziqishlari va fikrlari bilan hisoblashishni faoliyat jarayonida o‘rganadi. Maktabgacha bo’lgan bolalik davri davomida bola harakatlarida o‘zgarishlar va qiyinchiliklar ro’y beradi. Ular bolaning idroki, fikrlashini, xotirasinigina emas, o‘zining xulqini yo‘lga qo‘yishini ham talab qiladi. Shaxslararo munosabatlardagi axloq-odob namunalarini o‘zlashtirish kattalar ta’siri ostida boshqariladi. Bu kattalarning bola shaxsini shakllanishiga ko‘rsatgan asosiy ta’siridir.

Bola shaxsining rivojlanishi ikki jihatni o‘z ichiga oladi. Ulardan biri bolani atrof-muhitni asta-sekin anglab borishini va unda o‘z o‘rnini his qilishini bildiradi. Bular sababli bola xulqida o‘zgarishlar ro’y beradi va ular ta’siri ostida bola u yoki bu harakatlarni sodir qiladi. Boshqa jihat esa his-tuyg‘u va irodani rivojlanishini taqozo etadi. Ular yuqorida aytilgan o‘zgarishlar ta’sirini, xulq-atvorni mustahkamligini, uning tashqi sharoitlarga bog‘lanib qolmasligini ta’minlaydi. Bolalar uchun odob namunasi sifatida kattalarni o‘zi avvalo ularning harakatlari, o‘zaro munosabatlari xizmat qiladi. Bola atrofidagi yaqin insonlarning xulqi unga bevosita jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. U ularga taqlid qilishga, odatlarini o‘xshatishga, odamlarga, hodisalarga, narsalarga bo’lgan fikrlarini o‘zlashtirishga moyildir. Lekin yaqinlari bilan ish cheklanib qolmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola kattalar ha yoti bilan har xil yo‘llar orqali tanishadi: ularning mehnatini kuzatadi, hikoya, she’r va ertaklarni tinglaydi. Boshqalarning mehr, hurmat va maqtovlariga sazovor bo’lgan odamlar bola uchun namuna vazifasini o‘taydi. Shu bilan birga bolalar guruhida ijobjiy baholangan va mashhur bo’lgan tengdoshlarining harakatlari ham u uchun namuna bo‘la oladi. Va nihoyat, ertaklarda aks ettirilgan personajlarning harakatlari ham namunalikda katta ahamiyatga ega. Bunday personajlar



u yoki bu odob fazilatlariga ega bo‘ladi. Bolaning yaqinlari doirasiga kirmaydigan, shunday bo‘lsa ham uning e’tiborini qozona olgan odamlar fikri uning namunali xulqni o‘zlashtirishida katta ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Bola bu odamlarga qattiq bog‘lanib qolganligi sababli, ularning kattalarga, bolalarga, hikoya va ertak qahramonlariga bergen bahosi u uchun boshqalarnikidan ishonarli tuyiladi.

Kichik va o‘rta yoshdagi bolalar axloq namunalariga katta qiziqish bildiradilar. Masalan, ertak yoki hikoya eshitayotib, ular kim yaxshi va kim yomon ekanligini aniqlashga tushadilar. Bu ma’noda noaniqlikka chiday olmaydilar va hattoki o‘z nuqtayi nazarlaridan jonsiz predmetlarni ham baholamoqchi bo‘ladilar. O‘rmonda adashib qolgan va daraxt kesuvchi tomonidan qutqa rib qolning bola haqidagi ertakni tinglab bo‘lgach besh yoshli bola: «Bolani topib olgan amaki yaxshi ekan, o‘rmon esa yomon, u bolani adashtirib qo‘ydi», dedi. To‘rt yoshli bola bo‘lsa, tentak haqidagi bir qator ertaklarni eshitib bo‘lgach: «Oyijon tentaklar yaxshi bo‘ladimi yo yomonmi?» – degan savolni berdi (Muxina tadqiqotlari). Bolalarning o‘zi ham, atrofdagilar ulardan kutayotgan xulq haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan holda, sekin-asta o‘z harakatlarini baholay boshlaydilar.

### **Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. “Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim” T., 2007 y.
3. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 2007 y.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFATLARNING OTGA BOG'LANISHINI  
O'RGATISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Ermatova Yoqutxon Asildinovna,

Andijon viloyati, Andijon shahar 17-umumiy  
o'rta ta'lim maktabning 1-toifali  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Tel: 916055564

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi interfaol uslublardan foydalanishning ijobjiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan namunalar tavsiya qilinib yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, metod, o'quvchi, sifat, ot, bog'lanish, bilim, dars

“Innovatsiya”–bu yangilik demakdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga, albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo'ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta'limga tashkil etishning aniq texnologiyasini ko'rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvlidir. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusini o'rgatish metodikasi katta o'rin tutadi. Sababi, 1-sinfdan boshlab o'quvchilarga narsa-buyum belgisini bildiruvchi so'zlar bu sifat-so'z turkumi ekanligi haqidagi tushuncha shakllantirib borilishi natijasida ular bu haqda to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. Men ko'pincha darslarimda “BBB”, “Ortiqchasini top”, “Qoidani top”, “Karvon”, “Quruvchilar”, “Kim zukko, kim tezkor”, “Noto'g'ri jumla”, “Qarsak chaldi”, “Hikoya”, “Boshqotirma”, “Tushunchalar tahlili”, “So'z ichida so'z”, “Quvnoq alifbo”, “Rasmlı diktant”, “Blits-o'yin” texnologiyasi, “Boshqotirma”, “Ha yoki yo'q”, “So'z yozish”, “Baliq skleti” kabi metod va o'yin usullaridan hamda ta'limi mashqlarlardan keng foydalanaman. Boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlari asoslanadi. Sifat predmetning belgisini bildirib, uni ot bilan bog'liq o'rganishni talab qiladi. O'quvchilar sifatni tushunish uchun 1-sinfданоq bolalar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagisi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar. Sifat asosan otga bog'lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: oq ko'yak, kuzgi ekin, aqli qiz, yumshoq non, o'rtancha o'g'il. Bunda belgi bildiruvchi so'z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi. Sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar bilan qo'llanish mumkin, lekin sifat o'zgarmaydi: ko'k qalam, ko'k qalamning, ko'k qalamdan kabi. O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma - qizil, shirin, yumaloq olma; (qanday?) lenta - uzun, keng, ko'k lenta. Albatta, suhbat asosida o'quvchilar olma, lenta so'zleri nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so'zlar qanday? so'rog'iga javob bo'lib, predmetning' belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini misol bilan tushuntiradi: (Qanday daraxt? - Katta, chiroyli, sershox, ko'mko'k daraxt. Qanaqa shkaf? - Oynali, baland shkaf.) Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi. Sifat otga bog'lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz do'stlarning eng yaxshi do'sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin.



(Y.Shukurov). O‘quvchilarda sifatning otga bog‘lanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

Masalan: “BBB” metodi ( bilaman ,bilishni xohlayman, bilib oldim).

Ushbu metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo’llash jarayonida o‘quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishslash mumkin. Ushbu metodning sxemasi yangi mavzu boshlanishidan oldin doskaga chiziladi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
qizil, ko‘k, qora, sariq, oq, malla	mazali,taxir, shirin, nordon	qalin, mayda

Xulosa qilib aytganda,didaktik o‘yinlar,interfaol uslublar,ta’limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o‘quvchini yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishga va ta’lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz o‘qituvchilar har doim jajji o‘quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo‘lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir. Maqsadimiz: O‘quvchilarda “Sen buni bilishing kerak “ degan majburlovchi da’vatdan “ Menga bu zarur va men buni bilishga ,uni hayotga qo’llashga qodirman “ degan ichki ishonch va intilishni uyg‘otish zarur.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: 1995
2. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: 2009.
3. Ikromova R. va boshq. Ona tili 4-sinf uchun darslik. – T.: 2009



**TA'LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH ( XAR BIR BOLAGA ALOXIDA YONDASHISH )**

**Sultanova Ozoda Abduqaxxarovna**  
Uychi tuman 42-MTT tarbiyachisi.  
Tel: 99-33470-00-87

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotida “ Bolaga yo'naltirilgan ta'lif ” dasturida tarbiyachilar bolalarning maqsadga qanday erishishishi yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, rivojlantiruvchi muhit, faol, jismoniy va xissiy rivojlanish, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lif.

“ Bolaga yo'naltirilgan ta'lif ” dasturida tarbiyachilar bolalarning maqsadga qanday erishishni, boshqalar to'g'risida g'amxo'rlik qila olish va o'z olamlariga ta'sir ko'rsatishga qobil bo'lган, faol, xarakatchan insonlar bo'lib yetishishlariuchun zamin yaratadilar. Shu bilan birga tarbiyachilarni bolalikning ilk davri o'z-o'zicha qanday o'tishi tashvishlantiradi. Bunday yo'l tutishga o'yinlar alohida rol o'ynashi va o'rganish jarayonini individual tarzda tashkil etish muximligini tan olish lozim. Individuallashtirish xar bir bolaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kafolatlaydigan rivojlanish darajasini xisobga olish va faoliyat turlarini mos ravishda rejalashtirish xisobiga qo'lga kiritiladi. Buning uchun bolaning sog'lig'i, jismoniy va xissiy rivojlanish darajasi, shuningdek, kognitiv o'sishi to'g'risida xar tomonlama ahborot talab etiladi. Tarbiyachining ishi qarorlar qabul qilishdan iborat bo'lib, bu davrda u bolani kuzatadi, bola o'shining axamiyatli soxalarida qaysi bosqichda turganligini aniqlaydi va shu asosda u yoki bu ta'sir etish yo'llarini belgilaydi. Ma'lumki, har qanday odamning ta'limiylarini bolaning haqiqiy faoliyatisiz amalga oshmaydi. Bola faoliyati esa o'zgarmas bo'lib qolmaydi. Bola rivojlangan sayin uning mazmuni va shakli o'zgarib boradi. Bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit bu-bolalikning amaliy dunyodir. Bola ushbu muhitda yashaydi, ular bilan munosabatda va rivojlanadi. Bu o'rinda yetakchi muhit sifatida nafaqat o'yin muhiti, balki bola rivojlanishi uchun muhim bo'lган barcha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lifning markazida o'sayotgan inson, uning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani kabul qilinishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va ma'suliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lif asosida tarbiyalanuvchi bolalar an'naviy dastur bo'yicha tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo'ladilar. Maktabgacha ta'lif tashkilotida bola shaxsini shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar xar bir yoshda o'zini o'rab turgan muxitdan aynan o'zini qiziqtirgan hayotiy malakanini oladi. Muhit qanchalik toza va musaffo bo'lsa bolaning inson sifatida shakllanishida shunday toza va musaffo ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu jarayonning o'ziga xos qonuniyatlarini mavjud. Demak, maktabgacha yoshdagagi bolalarni to'laqonli rivojlantirishda kattalarning ular bilan mazmunli suhbatlari va bolalikning predmetli muhit bilan boyitish zarur. Bu bolalikning predmetli muhitni hisoblanadi. Shunday qilib, predmetli muhit, o'yinchoqlar, o'yin vositalari, moddiy resurslar, jihozlar, ko'rgazmali qurollar yordamida bolani aqliy, jismoniy, psixologik rivojlantirishga pedagogik ta'sir o'tkazishni anglatadi. Bolani rivojlantiruvchi muhit mazmun-mohiyatiga ko'ra bolani aqliy, jismoniy va psixologik rivojlanishini ta'minlashi, takomillashtirishi, piravard natijada bolalikni rivojlantirishning predmetli muhitiga qo'yilgan pedagogik talab va maqsadni ro'yobga chiqarishi kerak. Predmetli muhitni pedagogik jarayonda muvoffaqiyatli qo'llanma uchun uning variativligini ta'minlash kerak. Maktabgacha ta'lif tashkilotining turiga qarab bolalikning rivojlantiruvchi muhitni barpo etish shart-sharoitlariga qarab, bolalarga ta'lif-tarbiya berishning o'ziga xos, alohida, betakror, samarali imkoniyatlariga ega bo'lishi mumkin. Bolaning ijodiy rivojlantirishda yangi ahbort texnologiyalarini, shu jumladan kompyuterlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Bu vositalar yordamida bolaga aqliy, ahloqiy, ma'rifiy ma'lumotlar o'yin va o'yin vositalari orqali kirib boradi. Eng avvalo maktabgacha ta'lif tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitning izchilligi ta'minlanishi, bolalar bog'chasida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyati inobatga olingan va tayanch dastur talablarini sifatli va mazmunli bajarilishiga xizmat qilishi lozim. Bugungi bolalar o'zining kundalik xayotida turli-tuman o'zgarishlarga duch keladilar. Dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar bolalarda muttasil o'qishga intilishni tarbiyalashni, o'zgarayotgan



dunyoda zarur bo’ladigan qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Agar bola muntazam tarzda foydali va qiziqarli ish bilan band bo’lsa, bu pedagogning yutug’idir. Faol, tashabbuskor bola o’zi mehribonlik, rag’bat bilan qamrab olingan samimiyl maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilada kamol topadi. Maktabgacha ta’lim tashkilsida barcha yaxshi narsalar bolalar uchun bo’lmog’i zarur. Boldalarning to’laqonli rivojlanishi faqat uning ichki dunyosi emas, balki unga keng imkoniyat va kattalar dunyosi kerak bo’ladi. SHu boisdan ham maktabgacha ta’lim tashkilsida predmetli muhit bola harakatlanishi uchun barcha imkoniyatlar manbai bo’lmog’i zarur. Bolalar nima bilan shug’ullanishlarini esa o’zlari tanlab olishlari uchun muayyan vaqt ajratishlari lozim. Tanlash qiziquvchanlikni, muammolarni hal etishga, boshqalar bilan muomalada bo’lishga hamda oldinga qo’yilgan maqsadlarga mustaqil erishishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalar uchun quvonch, shodlik taraqqatuvchi maskan bo’lishi lozim. Kichkintoylar bu yerga hatto dam olish kunlari ham kelishga intilishi lozim.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Bola shaxsini rivojlantrishga yo’naltirilgan ta’lim.-T.: 2012 yil, 12 b.
3. Sodiqova Sh. Yo’ldasheva F. Shaxs kamolotining muhim mezoni./Maktabgacha ta’lim : ilmiy-metodik jurnali.- 2015 yil, 5 –son,10-11b.



JISMONIY MASHQLAR BILAN BIRGA AMALGA OSHIRILADIGAN  
CHINIQTIRISH TADBIRLARI

**Abdulazizova Soxiba Nematullayevna,**  
To`raqo`rg`on tuman 40-MTT tarbiyachisi.  
Tel: + 99-94 508-84-05

**Annotatsiya:** maqolada sog'lomlashtirish ishlari, jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil etish tadbirlari yoritildi. Shuningdek, unda sog'lomlashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi hamda bolalarni chiniqtirish va ularning sog'lig'ini mustahkamlash chora-tadbirlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar, faoliyat, chidamlilik

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni chiniqtirish maqsadida havo vannalari, suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush, cho'milish) va quyosh vannalaridan fondalaniladi. U yoki bu muolajaning har biri alohida holda bola organizmning yetarlicha chiniqishini ta'minlay olmaydi (masalan bolalarning har kungi artinishlari va ayni paytda ularning ochiq havoda ko'p bo'lmasliklari). Tabiiy omillardan kompleks foydalanish bolalarda tashqi muhitning turli noxush ta'siriga (nam havo, yomg'ir, shamol, qizish) nisbatan chidamlilik hosil qiladi. Chiniqtirish tadbirlari jismoniy mashqlar bilan birgalikda olib borilganda juda samarali bo'ladi: aktiv muskul ishi issiqlik regulyatsiyasining takomillashuv jarayoniga va bu bilan organizmning tashqi muhitga moslashuviga yordam beradi. Chiniqish jarayonida organizmning jiddiy qayta qurilishi yuz beradi va agar bola aktiv bo'lsa, u tabiiy va oson kechadi. Bola uchun qiziqarli jismoniy mashqlar va o'yinlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari emotsiyal ko'tarinkilik uyg'otadi, oly nerv markazlari funktsiyasini oshiradi, ichki organlar ishini va modda almashishini boshqaruvchi vegetativ nerv tizimga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Chiniqish shartli reflektorli jarayon sifatida muntazamlilikni talab qiladi. Boshqaruvning yo'qligi, rejimning buzilishi natijasida muvaqqat bog'lanishlar so'nadi va bola organizmi tashqi muhitga chidamliligini va turli noxush ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini yo'qtadi.

Chiniqish jarayoni xilma-xil: u bir tomondan vrach tavsiyasiga ko'ra maxsus tadbirlar (havo, suv, quyosh vannalari) ni o'z ichiga oladi; ikkinchi tomondan kun rejimida belgilangan sharoitning (xonani muntazam shamollatib turish, darchalarning ochiq turishi, bolalar yengil kiyimbosh va poyabzali, sayrning belgilangan muddatiga va bolalar harakat aktivligi rejimiga rioya qilish, derazalari ochiqxonada uqlash) albatta mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bularning hammasi organizmning to'laqonli chiniqishini ta'minlaydi, unda yoqimli o'zgarishlar paydo qiladi (nerv tizimning holati va funktsiyasini, modda almashinishi jarayonini, qon tarkibini yaxshilaydi, nafas olishni chuqurlashtiradi, psixikaning emotsiyal-ijobiy holatini vujudga keltiradi), sharoitni muqobillashtiradi va bola xatti-harakatini bu sharoitga moslashtiradi. Harakat paytida qabul qilinadigan havo vannalari bolalar harakat faoliyati vaqtida havoning terining ochiqqismiga bevosita ta'sir etishini ta'minlaydi. Bunday havo vannasining eng maqsadga muvofiq va tabiiy ko'rinishi ochiqhavoda hamda deraza, darchalari ochiq xonalarda o'tkaziladigan mashqlardir. Suv tadbirlari artinish, boshdan suv quyish, dush, cho'milish (suv havzalarida, ko'lda) kabi muolajalardan iborat. Vrachning bolalarning individual xususiyatlari va sog'lig'ini hisobga olib bergen tavsiyasi bu muolajalarni belgilash uchun asos bo'lib xizmatqiladi. Suv muolajalarida bolaning faol bo'lishi maqsadga muvofiq va zarurdir. Birinchi kichik guruvida aktivlikka undash asosan kattalardan bo'ladi, ular bolalarni harakatlarga undaydilar. Bola kichik yoshdan mustaqil harakat qilishga o'rgana boshlaydi. Oyoq, qo'l uchlaridan markazga qarab uqalash harakatlaridan iborat artinishda bolalar suvi siqilgan ho'l qo'lqoplar yordamida o'zlari harakat qilishga o'rganadilar. Doira yoki yarim doira bo'lib turgan holda ular bir vaqtida ko'krak, yelka va qo'llarni ishqalab artadilar. Shunday qilib, bola artinish jarayonida harakatda bo'ladi,sovutqotmaydi va tarbiyachi rahbarligida zarur hayotiy ko'nikmaga o'rganadi.

Boshdan suv quyish o'zining organizmga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra oldingi tadbirlardan birmuncha kuchliroqdir. Suv oqimi badanni tozalaydi, muskullar tonusini oshiradi, ular ishini aktivlashtiradi, nerv tizimni qo'zg'otadi, tetiklik holatini yuzaga keltiradi. Bola oqayotgan suvga orqasi, ko'kragi, biqini, qorni, qo'lllarini tutib aylanadi. Bundan tashqari u suv oqimiga ko'ra harakat qilib, badaniga suv sochib ishqlashi mumkin. Muolajadan so'ng barcha bolalar badanlarini tarbiyachi kuzatuvida yaxshilab artadilar. Cho'milish har kungi doimiy muolaja sifatida bola



organizmini sog'lomlashtirish va chiniqtirishning ajoyib vositasidir. Sovuq suv, ul'trabinafsha nur omixtaligidagi toza havo, bolalar harakati — bu vositalar butun bir kompleksi bola organizmiga, uning nerv tizim, emotsional-ijobiy holatiga favqulodda yaxshi ta'sir etadi. Biroq, bu muolajaning samaradorligiga qaramay undan juda ehtiyojkorlik bilan foydalanish, bolalarni unga asta-sekin o'rgatish – dushdan oldin artinish va suvning haroratini asta-sekin pasaytirib borish lozim. Bolalarda issiqlik regulyatori funksiyasi yetarli rivojlanmaganligi tufayli issiqlikning teri orqali tashqariga ko'plab chiqib ketishi cho'milish paytida bolalarning harakat aktivligini taqozo etadi. Tarbiyachining suvda kichik guruhchalar (6-8 kishi) bilan uyushtiradigan oddiy quvnoq o'yinlari bolalarda ijodiy emotsiya uyg'otadi, muskul harakati esa issiqlik hosil bo'lishini kuchaytiradi. Buning natijasida bola o'zini yaxshi sezadi, sovuqqotmaydi va suvdan cho'chimaydi. Chiniqtirish maqsadidagi cho'milish dasturda o'rta, katta va tayyorlov guruhlari uchun tavsiya etiladi.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. T.: 2018
2. M.M.Nuriddinova. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi fanini o'rganish modulli bo'yicha o'quv - uslubiy majmua. T.:2016.



## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОСНОВНЫХ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВ ПРЕДМЕТА ФИЗИКИ

Хасанова Хамрохон Эргашевна  
Учитель СГОШ №67 Наманганской  
области Папского района  
Телефон: +998993648861.  
Rustam-rahimov97@mail.ru

**Аннотация:** В материале рассматривается основные методы преподавания предмета физики для повышения качества знаний и на формирование культуры.

**Ключевые слова:** физический эксперимент, творческая деятельность, самостоятельный поиск, интеллектуальная возможность, креативность.

Изучены различные основные методы преподавания курса, которые могут реализовать элементы системно-деятельного подхода и сформировать умения принимать решение у учащихся в процессе обучения физики.

Очень важно организовать взаимодействие между учителями физиками, которые работают в рамках передачи новых знаний , так и в рамках организации учебного процесса.

Известно, что физика – экспериментальная, теоретическая и естественная наука. Наряду с химией и математикой она занимает первое место в науке и строит главную, то есть мощную часть фундамента , на которую опирается всё человечество. Незнание физики может привести к тяжёлому экономическому и природному кризису. Последствие которого будут необратимыми по всем направлениям жизнедеятельности на земле и даже на космосе.

Правильный ориентированный подход в учебном процессе как средство достижений целей развивающего обучения . Соединение в процессе обучения физике принципа развивающего обучения , деятельного подхода к организации процесса обучения, проблемного обучения, требований достижений высокого уровня внутренней мотивации к чтению и требований обязательной успешности обучения для всех учащихся является основным методом преподавания.

Нам известно, что в финских школах, знания – далеко не самая главная цель. Важнее научиться , критически мыслить , понять принцип, по которому ставиться и решается та или иная задача.

Коммуникация, креативность , умение сотрудничать – важные составляющие современного учебного процесса. Включенность в общий культурный контекст, осознание себя частью социума – важный шаг на пути к полноценной взрослой жизни.

Теперь, перейдём к решению главной проблемы, то есть вопросу качественного преподавания физики в школах.

Для качественного преподавания физики в школах рекомендуются следующие методы:

1.Метод дискуссий. Применение при анализе проблемных ситуаций, когда необходимо дать простой и однозначный ответ на вопрос, при этом предполагаются альтернативные ответы , С целью вовлечения в дискуссию всех учащихся используется методика учебного сотрудничества. Данная методика основывается на взаимном обучении при совместной работе учащихся в малых группах. Основная идея учебного сотрудничества проста: учащиеся объединяют свои интеллектуальные усилия и энергию для того , чтобы выполнить общее задание или достичь общей цели.

2. Метод проект. Этот метод позволяет в полной мере реализации принцип саморазвития, так как для педагога основным содержанием является изменение учащегося, а для учащегося – самостоятельная реализация учебного процесса. Метод проектов ориентирован на творческую самореализацию личности учащегося путем развития его интеллектуальных возможностей, волевых качеств и мыслительную деятельность учащихся.

3.Метод создания проблемной ситуации. В условиях психологического затруднения у обучаемых начинается процесс мышления. В сознании обучаемых возникает проблемная ситуация, побуждающая их к самостоятельной познавательной деятельности.

4. Метод физический диктант. Это один из видов программированных заданий с конструированием ответов на поставленные вопросы или дополнений к повествовательным



предложениям с пропусками. Его можно проводить на каждом занятии.

5. Метод «Мазаика». Этот метод обучения призван решать главную задачу – научить ребёнка учиться. То есть истина не должна преподноситься в готовом виде. Гораздо важнее развивать критическое мышление , основанное на анализе ситуации, самостоятельном поиске информации, построению логической цепочки и принятию взвешенного и аргументированного решения.

6.Лабораторная работа. Этот вид обучения у учащихся формирует экспериментальные умение: они учатся определять цели эксперимента, ставить перед собой задачи и достигать их решения, выдвигать гипотезы и доказывать их или же опровергать, так же они учатся собирать установки, наблюдать и обосновывать с научной точки зрения происходящие явления, что может помочь учащимся в жизни объяснить происходящее.

7. Творческая работа. Основное отличие творческой работы от обычного обучения состоит в активизации познавательных способностей и творческих сил учащихся, в более глубоком проникновении в изучаемый вопрос. Творческая деятельность предполагает более высокий уровень познавательной деятельности, характеризующая тем, что учащиеся не ограничиваются простым воспроизведением , а высказывают свои собственные суждения и оценки.

Эти методы – основные моменты методики преподавания физики в школе. Оно направлена не только на повышение уровня знаний и на формирование культуры, а полностью гармоническое развитие личности.

Таким образом , основной задачей этих методов является создание удобной для человека способа обучения, обладание наилучшими показателями обучения, необходимость достижения требуемого уровня образования.

### **Использованная литература:**

1. Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики
2. Бузяева А.А. Психология думающего учителя
3. Иванов Д.А. Учебно- методическая пособия.



## BOSHLANG‘ ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O‘QITISH

Oripova Manzura Mahmataliyevna

Oltiariq tumani 2-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

tel: 91-285-41-00

e-mail:mahmataliyevna@mail.ru

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich ta’limning 4-sinf o‘quvchilariga tabiatshunoslik fanini o‘qitish, o‘quvchilarga fan sirlarini o‘rgatish, tabiat hodisalari bo‘yicha tushunchalar berish yuzasidan fikrlar bayon etilgan

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf, tabiatshunoslik, o‘lka tabiatni

Tabiatshunoslikni alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitish 4- sinfda ham davom etadi. O‘quv materiali «Atrofimizdagi tabiat», «Geografik xarita», «Yer — Quyosh sistemasidagi sayyora», «O‘zbekiston — globus va dunyo xaritasida», «Tabiatning xilma-xilligi», «O‘zbekiston tabiatini asraymiz», «Foydali qazilmalar», «Tabiat muhofazasi» kabi materiallami birlashtiradi. «Atrofimizdagi tabiat» mavzusini o‘rgana boshlashda bolalar yozgi topshiriqlarga yakun yasaydilar, jonajon o‘lka tabiatni to‘g‘risidagi materialni takrorlaydilar va jonli tabiat, uning asosiy belgilari, jonajon o‘lkamizning iqlimi haqida ma’lumotlar olishadi. Keyin «Geografik xarita» mavzusi bilan tanishadilar. Amaliy ish va mashg‘ulotlar jarayonida ayrim narsalarni, sinfni, mifik maydonchasini rejada qanday tasvirlash kerakligi bilan tanishadilar. Bu mavzu o‘quvchilarni geografiya xaritasini tushunishlarida asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z joyini o‘rganishga asoslanib, o‘qituvchi o‘quvchilarda O‘zbekistonning tabiiy xaritasi to‘g‘risida keyin esa MDHning tabiiy xaritasi to‘g‘risida boshlang‘ich tasavvurlar hosil qiladi. Xarita bilan ishslash butun o‘quv yilida davom etadi. Xaritalarda foydalanilgan shartli belgilari bilan o‘quvchilarni tanishtira borib, ularni o‘z o‘lkasi tabiatini tegishli rasmlar bilan taqqoslashi kerak. Shunga intilish kerakki, xarita ham bolalar uchun kitob kabi bilim manbai bo‘lib qolsin. «Yer — Quyosh sistemasidagi sayyora» mavzusi orqali o‘quvchilar globus — yerning kichraytirilgan shakli ekanligi, Oy Yerning yo‘ldoshi, Yerning harakati, kun bilan tun, issiqqlik yorug‘likning Yerda taqsimlanishi, yerning sun‘iy yo‘ldoshlari, raketalar haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo‘lishadi. Amaliy ishlar bajarish jarayonida yarim sharlar xaritasi, globus bilan ishslash nechta okean, qit‘a mavjudligi, bizning davlatimiz — O‘zbekiston Yer sharining qayerida joylashgan, nima uchun oy yerning yo‘ldoshi deb atalishi, qaysi xususiyatlari bilan yerdan farq qilishi, quyosh va uning yerdagi hayot uchun ahamiyati, kun va tunning hamda yil fasllarining hosil bo‘lishi kabi savollarga javob topishlari va bajarishlari lozim. Tabiatshunoslik mavzulari orqali o‘quvchilar Vatanimiz chegaralari, O‘zbekistonning tabiiy va ma’muriy bo‘linishi, uning viloyatlari haqidagi bilimlarni o‘zlashtira boshlashadi. «O‘lkamizning yer yuzasi» mavzusi orqali insonlar ta’siri tufayli yer yuzasining o‘zgarishi, o‘z o‘lkasining tuzilishi tekisliklar, tepalik, jarlar, tog‘lar, ularning o‘simgilik va hayvonot dunyosidan namunalar bilan tanishishadi. O‘z o‘lkasining maydoni bilan tanishish maqsadida ekskursiya uyuştirish, amaliy ishlar ya’ni qum va plastilindan tog‘lar va jarlar shakllarini yasash, yer yuzasining tuzilishini chizish kabi ishlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. «O‘lkamiz suv havzalari» mavzusini orqali esa o‘quvchilar yerda suv, buloq, daryo va uning qismlari, suv havzalari sohilining tabiatni, ularning o‘simgiliklari va hayvonot dunyosi, suv havzalarini muhofaza qilish haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Amaliy darslarda esa xarita va globuslarda daryolar tasvirlanishini taqqoslash, daryo tuzilishini chizish, o‘z viloyatlardan xaritalaridan qanday daryolar, suv omborlari borligini aniqlash kabi ishlarni bajarish tavsija etiladi. «Tabiatning xilma-xilligi» kichik mavzusi bolalarni mamlakatimiz tabiatining xilma-xilligi to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Bu ma’lumotlar o‘quvchilarga tabiiy geografiya kursida MDHning tabiiy hududlari to‘g‘risidagi materialni o‘zlashtirishini osonlashtiradi.

«Tabiatning xilma-xilligi» mavzusini muvaffaqiyatli o‘rganish uchun MDH (tabiiy va tabiiy zonalar) xaritalaridan, gerbariy, devoriy surat, kinofilm, rasm, jurnal va gazetalardagi fotosuratlardan, radio va teleko‘rsatuvlardan, berilgan Gidrometeorologiya xizmati xabarlaridan keng foydalanish zarur. O‘quvchilarni daftarda yozilgan har bir hududning tabiiy sharoitlari xarakteristikasi: 1- xaritadagi holati; 2- yuzasi; 3- daryo va ko‘llari; 4- yil fasllari; 5- o‘simgiliklari; 6- hayvonot dunyosi; 7- shahar va qishloqdagi odamlar mehnati kabilami o‘z ichiga olgan



rejadan foydalanishga o‘rgatish kerak. Ular xaritadan har bir hududni, u MDHning qaysi qismida joylashganligini ko‘rsatib bera olishlari kerak. Tabiiy zonalar relyefi umumiy doirada, masalan, «asosan tekisliklar va tog‘lar va hokazolar bor» tarzida ta’riflanadi. Yil fasllarini xarakterlash qish va yozning xarakterli harorati va yog‘inning ko‘p-ozligini tasvirlash bilan birga olib boriladi. Bunda yil fasllarining xususiyatlarini shu mintaqada Quyoshning yoz va qish vaqtlarida yoritish xarakteri bilan bog’lash lozim. Masalan, «Cho’lda Quyosh yozda ufqdan yuqoriga ko‘tariladi va deyarli tik tushuvchi nurlari Yer yuzasini kuchli qizdiradi» yoki «Tundrada, hatto yozda ham Quyosh ufq ustida pastda turadi va uning nurlari Yer yuzasi bo‘ylab qiya holda o‘tadi, uni kuchsiz qizdiradi» shaklida. Bolalarni u yoki bu zonaning xususiyatlarini jonajon o‘lkasi

tabiatni va odamlar mehnati bilan solishtirishga o‘rgatish g‘oyat muhimdir. O‘quv materialini taqqoslash bilan o‘rganish tafakkurni rivojlantiradi, bilimni konkretlashtiradi, predmetga qiziqishni oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Nuriddinova M .I.Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi: uslub va shakllari (muammoli leksiyalar kursi). Samarqand, 2003.
2. Tursunov Q.M., Nuriddinova M.I. Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya asoslari (o‘quv qo’llanma). Samarqand, 2003.
3. Пакулова В.М., Кузнецова М.И. Методика преподавания природоведения. М., 1990.



## ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ

Алимова Ф.А.,

к.п.н., доцент ТГПУ им. Низами

к.пед.н., доцент ТГПУ им. Низами

farzona-alimova@rambler.ru

+998(90)3165197

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены перспективы и возможности применения цифровых образовательных ресурсов в обучении химии.

**Ключевые слова:** цифровизация образования, цифровая среда, активные методы обучения, оптимизация учебного процесса, программные средства, профессиональная компетенция.

Роль химического образования тем более очевидна, что химия занимает центральное место в естествознании и от уровня химизации зависит развитие научно-технического прогресса. Велика её роль и в формировании научно-естественного кругозора. Вместе с тем химия является той дисциплиной, которая формирует интуитивный, то есть творческий вид мышления, развивает образно-логическое мышление.

Успешное претворение в жизнь идей совершенствования учебного процесса предусматривает повышение требований к общеучебной подготовке преподавателя. Глубокие социально-экономические изменения, протекающие в обществе, сильно влияют на условия оптимизации и характер развития учебного процесса. В последнее десятилетия отмечается активное внедрение цифровых образовательных ресурсов в учебно-воспитательный процесс. В полной мере это относится и к преподаванию химии.

Глобальная цифровизация и трансформация системы образования не стремиться искоренить традиционный формат обучения, а лишь направлена на реновацию структуру элементов компетентностного подхода, преподнося в образовательный процесс активные цифровые методы и формы обучения, которые способствуют формированию у обучающихся прочного базиса компетенций, отвечающие современным запросам общества. Традиционное обучение ориентируется на среднего учащегося. Темп работы преподавателя всегда усреднённый. Дифференцированный подход применяется только при самостоятельной работе и контрольных занятиях. При традиционном обучении самостоятельность в добывании знаний, учебные умения развиваются слабо. Наличие обучающей программы позволяет пропустившим урок студентам быстро восполнить свой пробел. Также оно хорошо зарекомендовало себя при формировании практических умений. В то же время отмечаются и отрицательные стороны программируемого обучения, такие как жёсткость управления учебным процессом, слишком глубокая индивидуализация, отсутствие общения и др. Однако, все эти недостатки сглаживаются, если программируемое обучение сочетать с другими видами и методами обучения.

На сегодняшний день современные занятия по химии уже невозможно представить без информационных технологий (ИТ). Цифровые образовательные ресурсы (ЦОР) обладают большим потенциалом, рис.1.



Рис.1. Возможности ЦОР в образовательном процессе

Цифровизация оказывает положительное влияние на мотивационную составляющую студентов (личностный ориентир), что несомненно повышает их интерес к обучению и никаким образом не препятствует формированию общепрофессиональных компетенций. ИКТ могут расширить доступ к различным образовательным программам и повысить качество преподавания и обучения в целом. Всемирная паутина расширяет контекст занятий и обеспечивает доступ к актуальным материалам, предлагая студентам и преподавателям множество материалов в различных режимах.

Подготовка преподавателей должна быть сосредоточена на трех основных направлениях: на технических аспектах ИКТ, на разработке содержания и на потенциальных возможностях и проблемах ИКТ. Развитие различных аспектов обучения, профессионализм преподавателей не должны ограничиваться какими-либо рамками. Поскольку обучение и образование становятся все более независимыми от времени и места, необходимо найти новые модели для интеграции цифровых образовательных ресурсов в подход к преподаванию и обучению, который обогащает и дополняет традиционные материалы.

Подводя итог и оценивая перспективы развития образования с точки зрения перехода в цифровую среду можно отметить, что процесс хотя и находится на первичных этапах все же уже характеризуется существенными изменениями в подходах к способам и форматам обучения.

#### **Использованная литература.**

1. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования / под ред. Я.И. Кузьминова, И.Д. Фрумина; Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования, 2019. – 339 с.
2. Алимова Ф.А. Роль учебных платформ в дистанционном образовании // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. - Ташкент. 2022, С.140-143
3. Shavkatovich B. R. Deduction of chemical thought //European research. – 2017. – №. 5 (28). – С. 62-68



## ONA TILI DARSLARIDA IBORALARDAN FOYDALANISH

Feruza Abdurahmonova

Farg’ona tumani 3-sonli maktab  
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi  
e-mail:feruzaabdurahmonova@inbox.uz

**Annotatsiya:** quyidagi tavsiyada frazeologik birliklar va ularning ma’nolari , ularni izohlash usullari metodlar orqali izohlangani haqida fikr yuritiladi. Iboralardagi sinonimlik va antonimlik haqida so’z boradi. Iboralarning kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** frazeologizmlar, ko’chma ma’no, antonim iboralar, sinonim iboralar, tasvir, “Ma’noli surat” metodi.

Ta’lim sifatini yaxshilash , o’quvchilarni mustaqil mushohada qilish, izohlay olish malakalarini o’stirish hozirgi kunning dolzarb masalasi. Tashkillanayotgan har bir dars o’quvchida o’zgacha taassurot qoldirishi kerak. Har bir mashg’ulotdan yangi bir ma’lumot olib, uni kundalik hayotda ham o’rinli qo’llay olishlari zarur. Shunday ekan, o’qituvchidan faqat o’z ustida izlanishi talab etiladi. Demak, zamonaviy o’qituvchi oz oldiga dars jarayonlarini yangiliklar bilan, noan’anaviy usulda , farlararo bog’lab tashkillashi lozimligini asosiy maqsad qilib olishi kerak. Frazeologizmlar -iboralar 5-va 10- sinf o’quv rejasiga kiritilgan mavzulardir. Sirdan qaraganda , mavzularni tushuntirish murakkabdek tuyuladi. Lekin turli metodlar bilan tushuntirish, fanlararo integratsiya usulidan foydalanish mavzuni chuqurroq o’zlashtirishga yordam beradi. O’zbek tilshunosligida iboralar sohasida tadtqiqotlar o’tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Sh.Rahmatullayev, B.Yo’ldashev, A.Mamatovlar tomonidan iboralar turli jihatlardan o’rganildi. Tilda ko’p vaqt bir qolipda qo’llanaverib , bo’linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud. Bular turg’un birikmalar -iboralar deb yuritiladi. Masalan: og’zi qulog’ida, tepe sochi tikka bo’lmoq. Keling, mavzuni topshiriqlar orqali izohlaylik. **1-topshiriq.** Mavzuni tushuntirishdan avval o’quvchilarga iboraning mazmuni aks ettirilgan“Ma’noli surat “ metodidan ( qo’lda chizilgan surat) foydalanish mumkin.



Savol : Rasmda nimani ko’ryapsiz? Bolalar rasmda birinchi ko’zi tushgan narsa tasvirini aytishadi. To’g’ri javob topilguncha , turli mushohadalar aytildi.

Javoblar: odam , kulayotgan odam , qulqoq ,og’iz. Lekin kimdir og’zi katta ekan , qulog’igacha yetib turibdi degan gapni aytadi. Shunda to’gri javob aytildi. “Og’zi qulog’ida ” gi holat -xursandlik ifodasini bildirishi bilan rasm to’la izohlanadi. Demak, og’zi qulog’ida iborasi xursand so’ziga teng. OG’ZI QULOGIDA = XURSAND Mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida bir necha suratlar ham ko’rsatiladi. Yuqoridaqidek izohlanadi.



**2-topshiriq.** Rasmlarda berilgan iboralar ishtirokida og’zaki gap tuziladi. Gaplarda qanday ko’chma ma’no ifodalayotganligi izohlanadi. 2-topshiriq orqali iboralarning ko’chma ma’noda



qo'llanilishi , tasvirni , voqeani ta'sirchan ifodalash mumkinligi aytib o'tiladi. Masalan: Gap otmoq- gap o'z ma'nosida , otmoq -ko'chma ma'nosida. Gapni qo'lga olib otib bo'lmaydi, bu yerda hushomad qilmoq ma'nosi anglashiladi. Shu tarzda ham iboralarning asl mazmunini ochib berish mumkin.

**3-topshiriq** . Iboralarning sinonimini toping. *Ko'z yummoq – olamdan o'tmoq – joni uzildi. Qo'ynini puch yong'oqqa to'dirmoq- aravani quruq olib qochmoq. Po'stagini qoqmoq– adabini bermoq.*

Iboralar o'rtasida antonimlikka misollar: *Afti sovuq- istarasi issiq. Ichi qora- oq ko'ngillik. Tili qisiq - tili uzun. Qovog'i osilmoq - kayfi chog'*

**4- topshiriq.** Iboralar tarixi. Bu topshiriqnı o'qituvchi o'quvchilarga yangi ma'lumot sifatida keltirish mumkin. Masalan: **To'nini teskari kiymoq iborasi.** To'nni kim teskari kiyadi? G'azab otiga minib , mushtlashaman degan kambag'al to'nini teskari kiygan.qon tegsa, loy tegsa astariga tegsin, yirtilsa astar yirtilsin, yamoq tushsa,astarga tushsin deb to'nni teskari kiygan. Kambag'alning to'ni ikkita bo'lмаган. Yirtilsa boshqasini kiyolмаган.Endilikda to'n kiyish urfdan qolgan... Mushtlashish ham urf emas. .. To'nni teskari kiyishga hech bir zarurat yo'q. Lekin qanoatli ibora unut bo'lмаган<sup>3</sup>.

Shuningdek, O'tkir Hoshimovning “ Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi “ G'or egalari” qissasini aytib berish mumkin. Hikoyada “Daqyonusdan qolgan ” iborasining kelib chiqishi haqida fikr yuritiladi. Inson hayoti davomida doim jamiyatda o'zaro muomala-aratashuv jarayonida ishtirok etadi. Istaydimi -yo'qmi nutqida iboralardan foydalanadi. Iboralarni o'z o'rnida qo'llash og'zaki va yozma nutqni jozibador qiladi, badiiy -estetik qimmatini oshiradi. Uslubiy tavsiyamiz orqali o'quvchiga iboralar haqida, iboralarni o'rinni qo'llay olish yuzasidan ma'lumot va yangiliklar bera oldik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. T. : Qomuslar bosh tahririyati,1982.
- 2.5-sinf onatili darsligi .T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2020.
- 3.E. Vohidov. So'z latofati. T.: O'zbekiston NMIU. 2014.
- 4.O' Hoshimov . daftар hoshiyasidagi bitiklar.T.: Sharq. 2011.



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Abduraimova Gulnora Orifxoja qizi**

Fargona viloyati Oltiariq tumani  
6-umumiy o'rta ta'lif maktabi  
boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy usullari hamda ularni dars jarayonida qo'llashning afzallikkleri haqida fikr mulohazalar bildiriladi

**Kalit so'zlar:** hamkorlikdagi faoliyati, ilg'or pedagogic metodlar, zamonaviy ta'lif, innovatsion metod.

Ta'lif o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'lifning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lif-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'lifning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rniqli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'nnaviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'lifi maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'nnaviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoniyatiga paydo bo'ladi.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishdirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'lifda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilimsaviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada



shakllanganiga ham bog’liq bo’lishi kerak. Ta’limda o’quvchi shaxsini fikrlashga, o’zgalar fikrini anglash va shu fikrni og’zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o’rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo’lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o’rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o’rganiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, innovatsion metodlarni rivojlanishi mamlakat ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini oshirishning eng to’g’ri yo’li hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, maktablarda boshlang’ich sinflardan o’rgatib borish har bir pedagog oldidagi eng yusak vazifalardan biri.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil., 160 bet
3. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo’Chqorova,



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA  
KO‘RGAZMALILIKNING AHAMIYATI

Achilova Dilfuza Saparboyevna  
Hazorasp tumani 44-son maktab o‘qituvchisi  
Telefon: +998 (97) 515 00 73  
achilova.dilfuza\_44@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbumaqola boshlang‘ich sinflarda savodo‘rgatish jarayonida ko‘rgazmalilikning ahamiyati haqidagi.

**Kalit so‘zlar:** Eshitish, ko‘rgazmalilik, o‘quvchi, o‘zlashtirish, idrok etmoq.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ustoz va murabbiylarga: “Biz xalqimizning eng katta boyligini - millionlab farzandlarimiz, jordan aziz o‘g‘il-qizlarimizning taqdirini, O‘zbekiston istiqbolini sizlarga ishonib topshirganmiz va bu vazifani mas’uliyat bilan ado etib kelayotgan sizlar kabi fidoyi insonlar, kelajak bunyodkorlariga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.” degan edilar.

Yurtboshimizning ushbu fikrlarida jamiyatimizda o‘qituvchilik kasbiga alohida e’tibor qaratilayotganining yorqin isbotidir. Shuni aloxida aytish mumkinki, ta’limning o‘zi borliqning ko‘rgazmali tasviridan iborat. Ammo boshlang‘ich sinf darslarida san’atning boshqa turlari: Texnika vositalaridan kompyuter, ideoproektor, kino, televideniya, musiqa, tasviriy san’at ham yordamga kelishi mumkin. Bular boshlang‘ich ta’lim jarayoniga qo‘srimcha axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilarda estetik tuyg‘ularning shakllaniishi va rivojiga imkon beradi.

Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, kompyutep va.b. har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularning hisobiga ko‘rgazmali qurollar doirasi yanada kengayadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ko‘rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish, bir-biridan o‘z xarakteriga ko‘ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa-boshqa maqsadlarni ko‘zda tutadi. To‘garak ishlarda, fakultativ mashg‘ulotlarda olib borish mumkin. Darsda esa ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning aksari o‘zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo‘llanishi mumkin. Aks holda u birinchi rejaga chiqib, asosiy mavzu orqa rejada qolishi mumkin.

Ko‘rgazmalilikdan foydalangandagina darslarda shartli ravishda o‘quvchining passiv yoki faol ishtiroti haqida gapirish mumkin. Agar ko‘rgazmali qurol o‘quvchi faolligini ijobiy ta’sir ko‘rsatmasa, undan foydalanmagan ma’qul. Demak, ko‘rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Hozirgi paytda ko‘rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir: illyustrativ-badiiy hamda grafik (chizma) materiallar, gramofon yozuvni va radioeshittirishlar, kinofilm va o‘quv filmlar, televizion darslar, slaydlar v.h.

Ularning har biri ko‘rish, eshitish, sintetik shakldosh ko‘rgazmalilikka tegishli bo‘lishi mumkin. Ayniqsa ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga turli portretlari, illyustrasiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo‘lgan joylar fotografiyasi, yoki fotosuratlar, v.b. kirishi mumkin. Har holda eng kamida darslik va darslik majmualardagi rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Otkritka ko‘rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foylalanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o‘quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin bo‘ladi.

Tinglash bilan aloqador ko‘rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Kitoblardagi she’rlarni, xususan she’riy asarlarni to‘liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushni obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik. Adiblar aytgan she’riy disklarning darslardagi zaruriyati ba’zan nihoyatda ochiq seziladi. O‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirishda ko‘rgazmali qurollar muhim didaktik vosita sanaladi.

Agar ko‘rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o‘ylab ko‘rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Boshlang‘ich sinf darslaridagi ko‘rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Yana



bir muhim holat shundaki, ko‘rgazmali qurollarni yaratishga o‘quvchilarning o‘zlarini jalg etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko‘chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko‘rgazmalar yasash, o‘quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1.Abduquodusov O. “O‘quv muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari “-T.,” O‘qituvchi” 2017

2.R.Safarova, M.G‘Ulomov, M.Inoyatova Savod o‘rgatish darslari. «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2012



## MUSIQA ILMINING TA'SIRCHANLIK XUSUSIYATLARI

**Djumaniyozova Rushona Bahtiyorovna**

Xorazm viloyati Urganch shahri 19-IDUMning

musiqa madaniyati fani o'qituvchisi

**Bobojonova Fazilat G'ayrat qizi**

Xorazm viloyati Urganch shahri 19-IDUMning musiqa

madaniyati fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada musiqlarning ajralmas qismi bo'lmish ruhiyat va sezgining mushtarakligi va ustozlar ijodini targ'ib qilish hamda, kelajak avlodga musiqlarning ta'sirchanlik xususiyatlarini sodda yo'llarda izohlash to'g'risida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zları:** Musiqa, milliy musiqa, maqom, g'ijjak, bastakor, honanda, sozanda.

Ilm-fan, ma'rifat, madaniyat asrlar davomida insoniyat olamini so`nmas mash'al bo`lib yoritib kelgan. Bizga ma'lum bo`lmagan tarix zarvaraqlari qatorida pinxon yotgan qadriyatlarimiz, noyob qo`lyozma asarlarimiz, qadimi yodgorliklarimiz istiqlol sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o`rganilmoqda. Tarix insonning barkamollik, taraqqiyot yo`li. Moziyni bilmaslik o`zni anglamaslikdir. «O`zini anglagan xalqgina buyuk kishilarining nomlarini e'zozlab, ruhi poklarini doimo yod etadi». Madaniy merosimizni, o'tmis qadriyatlarimizni keng va xar tomonlama o`rganish oldimizga qo`yan eng yuksak vazifamizdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek Kelajak avlodni kamolot sari yetaklashda ko`plab omillar qatorida musiqiy nazariy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon barcha boshqaruvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo`li bilan bilim darajasini samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvini joriy etishni ifodalaydi. Davlatimizda ta'lim soxasida XXI asrda tub burilishlar yuz beradi, o'quvchilar hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllanadi. Ya'ni, komil shaxsni tarbiyalashda musiqiy nazariy bilim darajasini o'stirishda katta mahorat, ijodiy tashabbus, chidam bilan muntazam ishslash talab etiladi.

Inson yaratilibdiki tug'ilishi bilanoq go'daklik chog'idan boshlab ona allasi bilan ruhiy taskin olib orom oladi, bor vujudi bilan allaning ohanglaridan tebranadi. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki ona allasi onaning farzandga bo'lgan misli ko'rinas darajadagi mehri sarchashmasi musiqiy sadolarda taralib go'dak qalbiga kirib borishi bilan, tinchlantiruvchi ozuqa vazifasini berishi o'z isbotini topgan.

Musiqa insonga ruhiy kuch va madad berishi olimlar tomonidan aniqlangan lekin, uning ta'sirchanlik xususiyatiga keladigan bo'lsak, milliy musiqalarimiz bilan sug'orilgan asarlarimiz insonga ta'sir kuchi va ruhiy madad vazifasini berishi mumkin.

Bugungi jahon mamlakatlari bilan yelkama yelka rivojlanib kelayotgan har bir sohamiz singari musiqa san'ati ham taqlid usullari bilan inson ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda desak mubolog'a qilmagan bo'lamiz.

O'zbekiston davlat konservatoriyasida an'anaviy ijrochilik yo'nalihsida ta'lim beruvchi ustozimiz Rifatilla Qosimov ham quyidagi so'zlarni keltirib o'tgan. *O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng ommaichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilar zimmasida bo'lmog'i zarur.*

Darhaqiqat ilmiy ijodiy yondashar ekanmiz maqom iborasigi bir nazar tashlab o'tsak, maqom so'zi ***o'rinn, joy, makon*** kabi ma'nolarida qo'llaniladi. Shu so'zlarining o'ziyoq mustahkamlik ma'nolarni bildirishini anglatib turibdi, maqomshunos olimlarimizdan ustozimiz Oqilxon Ibrohimov dars berish chog'larida o'quvchilarga hamisha insonga ruhiy ozuqa va barkamollik beruvchi musiqalarni tingash kerakligini aytib o'tishining o'ziyoq bu tajribalarda sinalgan ekanligidan dalolatdir.

Musiqa so'zi yunoncha bo'lib, uning ma'nosi ***kuylarni tuzish*** demakdir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, musiqlarning ta'sirchanligi nafaqat ovoz yoki cholg'u ijrosida aks ettirish mumkin, bu jarayonni kino, teatrлarda ham mushtarak bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Ayniqsa bu borada ustozdan – shogirdga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlariga murojaat qilish bilan birga bobokalon san'atkorlarimiz meros qolib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganib bormog'imiz lozim.



Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik sanatining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari, *Abu ali ibn Sino, Muhammad Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Paxlavon Mahmud, Umar Xayyom, mirzo Ulubek, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy* kabi ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik sanoati, musiqa ilmi va tarixi cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zlarining fikr va muloxazalarini bayon etib ketganlar.

Agar barchamiz bir bo'lib milliy musiqamiz bo'lmish maqomni tinglab eshitish madaniyatini yosh avlodga singdirara olsak, oldimizda turgan eng katta vazifalardan birini bajargan bo'lamiz.

Xulosa so'ngida shuni aytish joyizki, o'zbek milliy musiqamizni qancha targ'ib qilsak ham ozdir. Mamlakatimizda ijrochi ustozlarimiz yaratgan asarlar hamda, ular ijro egan munavvar kuy qo'shiqlar ta'sinchanligi, inson qalbidan ruhiy kuch va madad bo'lib xizmat qilib barchaga birdek xuzur bag'ishlab kelmoqda desak xato qilmagan bo'lamiz

Shunday ekan ustozlar ijodini o'rganish ularning asarlarini xalqqa yetkazish, ta'lif berishda ustozlar yo'llarini dasturul amal qilib ish olib borish barchamizning oldimizda turgan vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

### Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. R.Qosimov «An'anaviy ijrochilikdan dars berish uslbyati» Musiqa nashriyoti Toshkent 2007.
- 2.Zokirjon Oripov —SHarq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) Toshkent – 2008



## BOSHLANG‘ICH SINFLRDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Dadajonova Dilnoza Ma’rufovna  
Oltiariq tumani 2-maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
tel: 93-318-86-09  
e-mail:abdujalilovna@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich sinflarda foydalaniladigan didaktik o‘yinlarning tasnifi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars jarayoniga qiziqtirish maqsadida qo‘llaniladigan vositalar xususida fikrlar bayon etilgan

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, didaktik o‘yinlar tasnifi, ta’lim, o‘qituvchi

O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo’lishi bilan birlgilikda, ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo‘llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo‘llash, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funktsiyalarini bajaradi. Biroq, pedagogik texnologiyalarning funktsiyalarini taqqoslaganda bu funktsiyalar bir hil darajada o‘rin egallamasligi ma’lum bo‘ldi. Didaktik o‘yinli texnologiyasida yetakchi o‘rinlarni ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kommunikativ funktsiyalar egallab, qolgan funktsiyalar ularga ilova bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qituvchi darsda o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy – metodik asosda tanlangandagina ko‘zlagan maqsadga va samaradorlikka erishadi. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faolashtirish, didaktik o‘yin, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyihalash texnologiyalari va ularning funktsiyalarini. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashdiriladi. Shu sababli, o‘quvchilarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didiktik o‘yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o‘yin faoliyati quyidagi funktsiyalarini bajaradi: 1.O‘yin har doim shaxsning ma’lum bir faoliyati bo‘lgan qiziqishini orttiradi. 2.O‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi kommunikativ muloqot madaniyatini egallahsha yordam beradi. 3.Shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi bilimini va o‘zligini namoyon etishga imkon yaratadi. 4.Hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga, mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalari tarkib topadi. 5.O‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq–atvorni egallah, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi. 6.Shaxs strukturasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi, ya’ni ijobjiy xislat va fazilatlarni shakllatirishga zamin tayyorlaydi. 7.Insoniyat uchun ahamiyatlari bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy, ma’naviy–madaniy qadriyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratiladi. 8.O‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. O‘yin faoliyati o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi: 1. O‘yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni o‘quvchilarning o‘z faoliyatini taxlil va qilishi, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi, o‘z bilim va kuchiga ishonch vujudga keladi. 2. Ijodiy muhit tarkib topadi. O‘yin ishtirokchilari muammolarni hal etishda tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar. 3. O‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi. Shu asnoda his–hayajonli vaziyat paydo bo‘ladi. His – hayajonga yo‘g‘rilgan bilim, ko‘nikmalar inson xotirasida bir umr muxrlanib qoladi. 29 4. O‘yin davomida belgilangan qonun – qoidalarga amal qiladi. O‘yin ishtirokchilarida ijtimoiy normalarga mos ongi intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi. 5. O‘yin mazmuni, borish, ketma – ketligi, vaqt balansi va o‘quvchilarning muammolari vaziyatlarni zudlik bilan hal etish, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatadi. Boshqa o‘quv va mehnatfaoliyati kabi o‘yin faoliyati tarkibiga quyidagilar: a) o‘yining syujeti; b) o‘yin ishtirokchilari bajaradigan muayyan rollar, vazifalar; v) ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar (usullar); g) real yoki shartli ravishdagi o‘yin vositalaridan foydalanish; d) o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat, muloqot kiradi. O‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘yin faoliyati bilan uyg‘un holda tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi: 1. Didaktik o‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni aniqlash; 2. Didaktik o‘yin syujeti va ishtirokchilar



faoliyatini loyihalash; 3. O‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash; 4. Didaktik o‘yinni maqsadga muvofiq tashkil etish, uning mazmuni, borishi, mantiqiy ketma – ketligi, vaqt balansi va o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etishiga e’tiborni qaratish; 5. O‘yin ishtirokchilarini rag‘batlantirish; 6. Olingan natijalarini tahlil qilish; 7. Olingan natijalarga muvofiq holda o‘yin strukturasi va borishiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish; Didaktik o‘yinli darslar orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi: 1. Ta’lim – tarbiya berish; 2. Shaxsnri rivojlantirish; 3. O‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘llantirish; 4. Bilimlarni nazorat va tahlil qilish; 5. Kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo‘naltirish; 6. O‘quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini shakllantirish; Ta’lim–tarbiya jarayonida bu funksiyalar majmua holda amalga oshiriladi, lekin quyida o‘rganiladigan didaktik o‘yin turlarida qaysidir funksiyalar ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar unga ilova bo‘ladi, o‘yin mashqlarda bilimlarni nazorat va tahlil qilish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar uni to‘ldiradi va h.k

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yo‘ldoshev. G‘. “Ta’limimiz istiqlol yo‘lida”. –T.: Sharq 1996.
2. Yo‘ldoshev G‘, Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari”. –T.: O‘qituvchi, 2004.
3. Mavlonova R, To‘raeva O, Xoliqberganov K. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, 2001.
4. Mavlonova R , Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limda innovastiya. Metodik qo‘llanma, TDPU, 2007.



## YUKSALISH – O’ZLIKNI ANGLASHDAN BOSHLANADI

Ibragimov Tohir Rustamovich

Navoiy viloyati Tomdi tumani

4-umumiy o'rta ta'lif maktabi

Tarbiya va huquq asoslari fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insonning o'zligini anglashi, rivojlanishi haqidagi fikrlarga to'xtalib o'tilgan, shuningdek o'zlikni anglash bo'yicha allomalar fikrlaridan namunalar berilgan va izohlangan.

**Kalit so'zlar:** o'zlikni anglash, hayot, inson, maqsad, shaxs, ma'no, jamiyat, madaniyat, milliy, muvaffaqiyat.

*Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,*

*Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya,*

*Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!*

*Sh. Mirziyoyev*

Insoniyat jamiyat tarixiy taraqqiyoti o‘z-o‘zini anglash eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma’naviy voqelik, sha’n, qadr-qimmat, obro‘-e’tibor, or-nomus orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Hayotning ma’no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘zligini anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. O‘zligini anglagan inson ma’naviy yuksalishga erishadi, har qanday sharoitda ezzulik sari harakat qiladi. Yuksak rivojlangan jamiyat esa o‘zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e’tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o‘zgalar va butun borliq oldidagi mas’uliyat tuyg‘usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. “Men kimman?”, “Bu yorug‘ dunyoga nima uchun keldim?”, “Menga ato etilgan buyuk ne’mat - hayotimni nimalarga safarbar etmog‘im lozim?”. Inson borki, ertami-kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo‘l oladi. Bu yo‘lni - o‘zlikni anglash deb aytish mumkin. O‘zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida «meni» bilan bog‘liq.

O‘zlikni anglash milliy o‘z-o‘zini anglashga zamin yaratadi. Bir qator tadqiqotlarda milliy o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy ong fenomeni sifatida talqin etilib, o‘z o‘rnida 3 ta komponentdan iborat deb ko‘rsatiladi. Ya’ni: o‘z-o‘zini bilish; o‘z-o‘zini qadrlash, baholash va emotsional holatini anglab etish; milliy o‘zlikni boshqarish.

Etnomadaniyat va milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchalari bir-biri bilan uyg‘un tushunchalardir. Milliy o‘z-o‘zini anglashning asosiy omillari milliy mansublikni chuqur anglash, o‘z millati istiqbolgi oldida mas’ullikni his qilish bo‘lsa, etnomadaniyat ham o‘zbek xalqining kelib chiqishi, uning madaniyati, turmush tarzi, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayonlarda ravnaq topib xozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma’naviy hamda madaniy merosidir. Har bir xalqning yuqori darajasida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, vatan fidoyisi bo‘lish, o‘z xalqidan faxrlanish hissi o‘sha davr jamiyatni tartib- qoidalariiga ko‘ra, ko‘pchilikda bir xil, yuksak saviyada bo‘ladi. Aholining o‘zlikni anglash darajasi fuqarolarning hayot mazmuniga, kundalik turmush-tarziga aylanadi.

G.V.Shelepoval etnik jamoani “kelib chiqishi va uning etnik o‘z-o‘zini anglashida namoyon bo‘lishi, til, hudud, madaniyat va turmushning ba’zi belgilarining birligi asosida shakllanadigan ma’lum tarixiy va iqtisodiy shart-sharoitlar natijasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy jamoaning maxsus ko‘rinishidir”, deb ta’riflaydi. Aslida milliy o‘z-o‘zini anglash millatning moddiy hamda ma’naviy manfaatlarini himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni «harakat»ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda milliy o‘z-o‘zini anglash omili millatni jipslashtiradi va uni umummaqsadlar yo‘lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun zarur asosiy o‘ziga xos belgilari tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. Milliy o‘z-o‘zini anglash millat abadiyligini ta’minlashning eng muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o‘ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi.

Xitoy faylasufi Shan Yan (mil.avv. 390-338) fikricha, “Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak



odamlarni og‘ir mehnatga majburlash oson. Aqli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldır”. Hadisda “Kimki o‘zligini tanisa, robbini taniydi” deb yozilgan. Bu hadisda buyuk hikmat yashiringan, ya’ni har bir inson o‘zi intilmasa, maqsadlar qanchalik ulug‘ bo‘lmasin, bironbir natija bermaydi. Shuning uchun ham islam ahli, mutasavvif allomalar insonni “olam mehvari” deb bilganlar.

Hazrat Navoiyning “El netib topqay menikim, men o‘zimni topmasam” - degan so‘zlari bugungi kunda ham chuqrur ma’no kasb etadi.

«O‘zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o‘zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman» deydi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

Dunyoga kelgan har bir inson – davlat uchun tom ma’nodagi noyob boylikdir. Unda o‘ziga xos qobiliyat yashiringan bo‘ladi. Shu qobiliyat yuzaga chiqsa, undagi iste’doddan butun jamiyat manfaatdor bo‘ladi.

Insondagi iste’dodni kashf qilishning vositasi – ta’lim.

Tabiiy xomashyo resurslari dunyo miqyosida deyarli adog‘iga yetmoqda.

Shu sababli mamlakatlarning e’tibori inson aql-zakovatini «zabt etish»ga qaratilgan. Inson omili yuksalib, jahon iqtisodiyoti tobora bilimga asoslangan sohalar ixtiyoriga o‘tmoqda. E’tibor qilinsa, dunyoning eng boy kompaniyalari ham aql evaziga boyimoqda. Hozirgi jarayonda ko‘proq bilim olib, ilg‘or fikrlarni ilgari surish – muvaffaqiyat asosidir.

Jamiyat rivoji shaxslarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Inson omili yuksalgani sayin davlat ham taraqqiy etib boradi. Shaxsiy rivojlanish – umr bo‘yi davom etadigan jarayon. Odamlar salohiyatlarini anglash va yuksaltirishni istasalar, ular maqsadlarini belgilashlari hamda ularga yetish uchun zarur qobiliyat, fazilatlarini rivojlantirishlari kerak.

### Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Umumiy o‘rtalama ta’lim maktablarining tarbiya fani darsliklari.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
4. [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ODAMIYLIK FAZILATLARINING  
ULUG'LANISHI

**Islomova Saodat Abduxalilovna,**  
Navoiy viloyat Xatirchi tuman 33-maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ilmiy va badiiy ijod olamida shunday ijodkorlar bo'ladiki, ular, avvalo, o'z xalqining asl farzandi, millatning faxri bo'lish bilan birga, bir millat doirasidan chiqb, umumbashariy ahamiyat kasb etadilar.

Navoiy "Xamsa" asarlarining qahramonlari asrlar davomida necha- necha avlodlar uchun ma'naviyat va odobda, odamiylik va jasoratda, xalqparvarlik va saxovatda o'rnak bo'lib xizmat qiladigan yorqin badiiy siymolar bo'ldi. Farhod va Qays, Suhayl va Sa'd, Axiy va Farrux, Muqbil va Jo'na kabi betakror qiyofalar, Shirin va Layli, Mehr va Mehinbonu, Dilorom va boshqa ma'naviy barkamol ayollar timsollari Navoiy asridan boshlab hanuzgacha yoshlarimizni oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda. Daho ijodkorlarimizning Navoiy va uning asar qahramonlari nomidan aytilgan:

Jahonda neki qilmish odamizod,  
Tafakkur birla bilmish odamizod.  
...Birovkim, jahonda so'zi rostdir,  
Erur dol angakim o'zi rostdur.  
... Ki har kil ayon etsa yaxshi qilig',  
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshilig'

kabi dono fikrlari mustaqillik davrida ham hayot darsligi bo'lib xizmat qilib, yoshlarimizni barkamol insonlar sifatida tarbiyalashimizga yordam bermoqda. "Xamsa" asaridagi har qaysi dostonning boshlanish qismida qahramonlarning kelajakdagi voqealarga, qahramoniklarga, sevgi – sadoqatga, sabr-qanoatga, ilmiy-muhandislik muammolarini hal qilishga, hunar shasiga tayyorlaydi, shuning uchun ularning faoliyatları o'quvchida ishonch hosil qiladi. Farhod, Qays, Iskandar, Suhayl, Sa'd, Axiy kabi qahramonlar vatanparvarlik, tashabbuskorlik, bag'rikenglik fazilatlar bilan o'quvchi muhabbatini qozonadi.

Navoiy inson haqida yuksak mulohazalarni bayon etadi. "Saddi Iskandariy" dostonida Arastu tomonidan Iskandarga aytilgan nasihatlar, bugunning, ertanining, har bir insonning shioriga aylanishi, unga amal qilinishi zarur.

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,  
O'zungga ravo ko'rmasligani ravo.  
...Nekim o'z qoshingda erur noravo,  
Ulusqa ani ko'rma also ravo.

Inson o'ziga yomonlikni, zulm va haqoratni, haqsizlik va xorlikni ravo ko'rmaydi. Ana shu kechinmalarni o'zgalarga ham munosib ko'rmaslik yuksak insoniylik belgisi ekanligini ta'kidlaydi.

Yozuvchi O'tkir Hoshimov buyuk bobokalonimiz haqida: "Navoiy hazratlarining badiiy mahorati shu qadar yuksakki, Himolay tog'idagi dengiz sathidan sakkiz ming sakkiz yuz qirq sakkiz metr balandlikda turuvchi Jomolungma cho'qqisiga o'xshaydi. Unga yetaman degan odamning boshi aylanib yiqilishi va parcha-parcha bo'lib ketishi hech gap emas. Shoir va mutafakkirning falsafasi shu qadar teranki, Tinch okeanidagi dengiz sathidan o'n bir ming yigirma ikki metr chuqurlikda joylashgan Marian nuqtasiga o'xshaydi. Unga yetaman degan odamning nafasi qaytib cho'kib ketishi hech gap emas", - deb yozgan edi. Darhaqiqat, ulug' shoirning badiiy mahorati shu qadar yuqoriki, eng qisqa, eng ixcham hikmatlarda ham olam-olam mazmun yashiringan. Shuning uchun ham Navoiyning hikmatli so'zлari necha asrlardan buyon xalq diliga mustahkam o'rnashgan bo'lib, ularni xalq maqollaridan ajratish mushkul. "Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q", "Ko'p degan ko'p yengilur, ko'p yegan ko'p yiqilur", "Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar", "Oshning ta'mi tuz bilan", "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim" kabi hikmatlarini ko'pchilik Navoiy asarlaridan olinganligini bilavermaydi ham.

Ilm, Navoiy senga maqsud bil,  
Emdikim ilm o'ldi, amal aylagil  
misralarida ilm egallash yashashdan maqsading bo'lsin va toki hayot ekansan, u senga dasturulamal bo'lsin, deb uqtiriladi.



”Mahbub ul-qulub” asaridan olingan quyidagi parchalarda ham yuksak insoniy fazilatlarning noyob durlari terib olinaveradi.

“Kimki umrini mardlar xizmati uchun sarflasa, umri o’tsa hamki, abadiy umr egasi bo‘ladi. O‘zingni shundaylardan uzoq tutma. Boshing ketsa ham shu muddaongni unutma. Umr-bevafodir; mardonqa hayot –abadiydir.”

Hargiz bo‘lmas, johu diram zori aziz,

Jon naqdi berib, siym xaridori aziz.

Pul-u boylikning quli bo‘lgan jonini tikib, mol-u dunyoga xaridor bo‘lgan kishi hech qachon aziz bo‘lmaydi.

Kim bo‘lsa hunarsiz, ishi- o‘q ranji erur,

Bu vajh ilakim, hunari ganji erur.

Hunarsiz kishilar alamga ega bo‘lsalar, hunarlilar xazinaga egadirlar.

Damingdin yiroq tutmagil hushni,

Ki yuzlanmagay har dam ofat senga.

Ofat ko‘rmayin desang, har vaqt hushyor bo‘l.

Mustaqillik yaratgan yangicha hayot va sharoitda yosh avlodlar o‘z o‘rnini topishi va yangicha zamон talablariga javob beradigan tafakkur va salohiyatga ega bo‘lishlari uchun Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, asarlarida ifodalangan g‘oyalarni tushunib, hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushvorlig‘,

Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish

Yoshlarda vatanparvarlik, tashabbuskorlik, bag‘rikenglik fazilatlarini kamol toptirishda Alisher Navoiy asarlarining o‘rni va ahamiyati juda katta.



## МТТДА МАШГ‘УЛОТДАН ТАШҚАРИ ВАҚТДА БАДИЙ АДАБИЙОТ БИЛАН ТАНИШИШ

Ismoilova Nasiba

Xorazm viloyati Hazorasp tumani  
Pedagogika kolleji o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishish bo‘yicha malasalalar ko‘rib chiqiladi. Ularga qo‘yiladigan talablar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Badiiy adabiyot, ertak, badiiy asarlar o‘qitish, bolalar kitobxonligi, badiiy asar mutolaasi.*

Boshlang’ich mashg‘ulotlarda mashg‘ulotdan tashqari o‘qishga kichik yoshdagi o‘quvchilarni ona tilini puxta o‘zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta’lim jarayonoda ularni ahloqiyestetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Mashg‘ulotdan tashqari o‘qishning maqsadi-kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Mashg‘ulotdan tashqari o‘qish dasturining mazmuniga ko‘ra ta’limning har bir bosqichida ikki asosiy bo‘lim ajratiladi:

1-bosqichda o‘qish doirasi, ya’ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o‘quv materiallari asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o‘rta ta’limning Davlat standartlari va o‘quv dasturiga ko‘ra 1-mashg‘ulotda mashg‘ulotdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida savod o‘rgatish darslarida hosil qilingan ko‘nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Mashg‘ulotdan tashqari o‘qish va qiroatxonlik saboqlari 1-mashg‘ulotda haftada 1 marta saboq o‘rgatish darslarining 20 daqiqa-sida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu mashg‘ulot o‘quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o‘qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o‘rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu mashg‘ulot o‘quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O‘qituvchi bolalarning his-tuyg‘ularini o‘stiradigan kitoblarni o‘qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go‘zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatları, o‘tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg‘otadi.

2-mashg‘ulotda o‘quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o‘qituvchining yordami va topshirig‘i asosida mustaqil o‘qishga o‘tadilar. Bu mashg‘ulotda 2 haftada bir marta mashg‘ulotdan tashqari o‘qish darsi o‘tkaziladi. Ona – Vatan va ota-bobolar jasorati, o‘simgiliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o‘qituvchi topib, tanlab o‘quvchilarga o‘qishga tavsiya etadi.

3 va 4-mashg‘ulotlarda mashg‘ulotdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma’naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 mashg‘ulotlarda mashg‘ulotdan tashqari o‘qish darslari ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘qituvchi mashg‘ulot kutubxonasida kerakli bo‘lgan o‘quvchilar yoshiga mos kitoblarni to’plashni davom ettiradi.

Mashg‘ulotdan tashqari o‘qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishni, nutqni o‘stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma’naviy boyliklari barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o‘z orzu havaslarini yosh avlodda o‘g‘il-qizlarida ko‘rishni istaydilar. Shu sababdar ham o‘quvchilarga ertaklarni o‘qishga tavsiya qilinadi. Ertak o‘qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo‘lishga intiladi. O‘quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo‘lagiman, men o‘z xalqimga qilayotgan ishlarmi bilan ularga munosib bo‘lib ulg‘ayishim kerak, desagina o‘z xalqini munosib farzandi bo‘la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. “Uch og‘ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va to‘g‘ri” kabi bir qator ertaklar o‘quvchilarning sevimli ertaklaridir.



“Ur to’qmoq” ertagining bola xarakterining shakllanishida alohida o’rnii bor: ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga yomon bo’lish kerak degan muhim qoidani o’rtaga tashlaydi. Haqiqatan ham xalqning “Qayna xumcha”, “Ochil dasturxon”larini zo’ravonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan “Ur to’qmoq”larni ishlatish zarurligini uqtiradi.

Kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimazni bilgan holda aqlan yetuk, jismonan sog’lom qilib tarbiyalash biz murabbiylar, ustozlar zimmasidadir. Shunday ekan mashhaqqatli ammo sharaflı kasbimizni sidqidildan bajarishda izlanuvchan ijodkor bo’lishimiz zarurdir. Chunki yurtboshimiz aytganlaridek “Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lishlari shart”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -T., 1996.
- 2 . Barkamol avlod — O ‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., „Sharq“, 1997- y.
3. Abdullayeva Q. Nutq o’sirish. T. „O’qituvchi“, 1980- y.
4. Asqarova M., Abdullayev K , Omitxonova M. O’zbek tili darsligi (7- sinf). T., „ O’qituvchi“, 1974- y.



## ALGEBRA FANINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Norxonova Felura Narimonovna,

Jumabayeva Shohista Raxmatullayevna

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 23-maktab

matematika fani o'qituvchilari

jumabayevashohista@gmail.com/90-430-10-16

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada algebra fani, uning tarixi va bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** natural sonlar, musbat ratsional son, "Al-jabr va al-muqobala"

Zamonaviy ta'larning eng muhim vazifasi o'quvchiga faqatgina muayyan bilimni o'rgatish emas, balki ularning fikrlash qobiliyatini o'stirish, egallagan bilimlarini amalda samarali qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir.

So'nggi yillarda yurtimizda yoshlar ta'limgan tarbiyasiga e'tibor nihoyatda katta bo'lib, bu esa o'qituvchidan katta bilim va tajriba, iqtidor va o'z ustida ishlashni talab etadi. O'qituvchining dars jarayonini to'g'ri tashkil qilishi juda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchiga qo'yiladigan talablardan biri dastur talablariga mos bo'lgan holda maqsadni aniq belgilab, o'tilgan mavzuni tushuntirish, mustahkamlashda vaqtadan unumli foydalanishga erishishdir. Buning uchun esa o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi lozim. Fan o'qituvchisi nafaqat o'z fanini, balki shu fanning tarixi va rivojlanish istiqbollarini ham yaxshi bilishi va o'quvchilariga bu haqida ma'lumot berib borishi kerak. Shulardan kelib chiqqan holda, quyida algebra fanining tarixi va rivojlanish istiqbollari haqida qisqacha to'xtalamiz.

Algebra — matematikaning algebraik amallarni o'rzanuvchi bo'limi. Eng sodda algebraik amallar — natural sonlar va musbat ratsional sonlar ustidagi amallardir. Ularning barcha asosiy xossalari qadim zamonlarda ma'lum bo'lgan.

Algebra fanining dastlabki tushunchalari eramizdan III asr oldin Misr va Yunonistonda paydo bo'lib, unda butun va musbat ratsional sonlar ustida arifmetik amallar qaralgan. Grek matematigi Diofant tenglamalarni butun sonlarda yechish masalalari bilan ham xuddi shu davrda shug'ullangan. Birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarni yechish hamda «algebra» so'zining paydo bo'lishida eramizning 800—850-yillarida yashab, ijod qilgan xorazmlik Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiyning xizmati benihoya kattadir. F. V i ye t (1540—1603) tomonidan algebraga ma'lum va noma'lum miqdorlarni harflar bilan belgilash tushunchasining kiritilishi mazkur fanning rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri bo'ldi. Sonlar ustida bajariladigan qo'shish va ko'paytirish qoidalarining umumlashtirilishi algebraik tenglamalar nazariyasining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Algebraik tenglamalar va ularni yechish XIX asrning boshlarigacha algebra fanining asosiy mavzusi bo'lib hisoblanadi.

Darajasi beshdan kichik bo'limgan algebraik tenglamalarni radikallarda yechilish yoki yechilmaslik masalasini frantsuz matematigi E. G a l u a (1811—1832), norvegiyalik matematik N. X. A b ye l y (1802—1829) va boshqa matematiklar tomonidan gruppalar deb ataluvchi aksiomatik usulda qurilgan tushuncha bilan bog'lanishi algebrani ixtiyoriy tabiatli obyektlar ustida bajariladigan amallar haqidagi fan deb qarashga olib keldi. Bu amallar uchun, qandaydir aksiomalar bajarilishi talab etiladi, xolos. Zamonaviy algebra fani ham xuddi shu ma'noda o'rjaniladi. Shunday qilib, algebra avvalo aniq sonlar, so'ngra algebraik tenglamalar haqidagi fandan o'z rivojlanish yo'lini aksiomatik va ayniqsa abstrakt asosda qurayotgan zamonaviy fanga aylandi.

Hozirgi zamon algebra fanining rivojlanishida N. G. Chyebotariev (1894—1947), O. Yu. Shmidt (1891—1947), A. I. Malyshev (1909—1967), A. G. Kurosh (1908—1971), P. S. Novikov (1901—1975) kabi matematiklarning hissalari benihoya yuksakdir. Algebraik fikr va belgilarning rivojlanishiga Diofant "Arifmetika"sinining (eramizning III asri) ta'siri katta bulgan. Algebraning bundan keyingi rivojlanishiga Xivada tugilgan va IX asrda yashagan matematik va astronom Muxammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Al-jabr va al-muqobala" asarining ta'siri juda katta bulgan. "Algebra" atamasi Xorazmiening ana shu asarining nomidan olingan. Bu asarda birinchi va ikkinchi darajali algebraik tenglamalarni yechishga keltiriladigan masalalarni yechishning umumiyligi usullari berilgan. XV asrning oxiriga kelib, shu davrgacha matematik asarlarda ishlatilgan algebraik amallarning uzundan-uzun so'zli ifodalari o'rniiga hozir qabul qilingan va — ishoralari, daraja, ildiz va qavs belgilari paydo bo'ldi. F. Viet (XVI asrning oxiri) birinchi bulib



noma'lumlar va masalalarda berilgan kattaliklar uchun harfiy belgilarni ishlata boshladi. XVII asrning o'rtalariga kelib asosan hozirgi zamonda ishlatilayotgan algebraik belgilashlar qabul qilindi.

XVII—XVIII asrlarda "Algebra" deb algebraik tenglamalarni yechish va harfiy formulalarini ayniy o'zgartirish haqidagi fan tushunilgan. XVIII asrning o'rtalariga kelganda algebra hozir "elementar algebra" deb tushuniladigan hajmda yuksaldi.

XVIII—XIX asrlar algebrasi — bu asosan ko'phadlar algebrasidir. Bir noma'lumli algebraik tenglamalar nazariyasi bilan birga bir necha noma'lumli algebraik tenglamalar tizimlarini yechish nazariyasi xam rivojlandi. Xususan, chiziq, tenglamalar tizimlari nazariyasi yaxshi rivojlandi, matriksa va determinant tushunchalari paydo bo'ldi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab, algebrada ixtiyoriy algebraik amallarni o'rganish masalalari paydo bo'ldi. XX asrning boshlarida

D. Gilbert, E. Shteynits, E. Artin va E. Neter kabi matematiklar asarlari ta'sirida ixtiyoriy algebraik amallarni o'rganish algebraning asosiy masalasiga aylandi va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

Algebraning hozirgi zamon matematikasidagi ahamiyati nihoyatda katta. Umuman, hozirgi zamon matematikasi ko'p bo'limlarining "algebraiklashishi" kuchayib bormoqda. Matematika boshqa bo'limlari masalalarining algebra tiliga o'tkazilishi, ularni yechish uchun nihoyatda unumli bo'lган formal algebraik hisoblashlarni tatbik qilishga imkon beradi. Keyingi vaqtarda matematikada bu yo'l bilan muhim ixtirolar qilingan (masalan, topologiyada). Algebraning fizikada, kibernetikada va matematikada sodda muhim tatbiqlari bor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.Nazarov,B.Toshpo'latov "Algebra va sonlar nazariyasi",Toshkent-1997-yil.
2. A.Hojiyev,A.S.Faynleb "Algebra va sonlar nazariyasi kursi",Toshkent-2001-yil.
3. zyonet.uz ,eduportal.uz



## PYTHON DASTURIDA KOMPYUTER TILSHUNOSLIGIGA DOIR BA’ZI MASALALARING YECHILISHI

**Madatov Xabibulla Axmedovich**

Urganch davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasи mudiri,  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

**Sattarova Sapura Beknazarovna:**

Urganch davlat universiteti "Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi"  
1-kurs magistranti  
sprsattarova@gmail.com

**Annotatsiya:** Python dasturining RegEx funksiyasi yordamida berilgan matn-korpusidagi belgi, so'z yoki har xil simvollar ketma-ketligini izlash mumkin. Shuningdek so'z turkumlariga tegishli qo'shimchalarini aniqlashda **re** kutubxonasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada Python dasturining **re** kutubxonasi yordamida kompyuter tilshunosligiga doir ba'zi masalalarning yechilishi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Python, korpus, regulyar ifodalar, Pattern, re, findall, search, split, sub,

Python dasturlash tilida matnlar bilan ishlaydigan bir qator funksiya va kutubxonalar mavjud. Shulardan eng ko'p qo'llanadigan regulyar ifodalar bilan ishlovchi Pattern kutubxonasıdir. Regulyar ifodalar(RegEx) yoki Regular Expression qidiruv namunasini tashkil etuvchi belgilar ketma-ketligidir. RegExdan satrda belgilangan qidiruv namunasi mavjudligini tekshirish uchun foydalanish mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan RegEx funksiyalari va ularning vazifalari:

Funksiya nomi	Tavsifi
<b>findall</b>	findall() funksiyasi barcha mosliklarni o'z ichiga olgan ro'yxatni aniqlaydi.
<b>search</b>	search() funksiyasi satrda moslikni qidiradi va mos keladigan bo'lsa, faqat birinchi moslikni qaytadi:
<b>split</b>	Berilgan satrning bo'lingan ya'ni split qilingan ro'yxatini hosil qiladi
<b>sub</b>	sub() funksiyasi mosliklarni siz tanlagan matn bilan almashtiradi.

Pythonda regulyar ifodalar bilan ishlash uchun **re** moduli quyidagi buyruq orqali import qilinadi: **import re**.

Re moduli bizga mos keladigan satrni qidirishga imkon beruvchi funksiyalar to'plamini taklif qiladi:

**1- masala:** Berilgan matnning biror so'z bilan boshlanib, boshqa bir so'z bilan tugaganligini aniqlash dasturi.

```
import re
#"Kompyuter" so'zi bilan boshlanib "yo'nalishlari" so'zi bilan tugaygigan satr
txt = "Kompyuter lingvistikasining zamonaviy yo'nalishlari"
x = re.search("^Kompyuter.*yo'nalishlari$", txt)
if x:
    print("Ha! Satr shablonga mos")
else:
    print("Mos emas")
```

**#NATIJA:** Ha! Satr shablonga mos

**2-masala:** Findall funksiyasi yordamida satrdan qidirish shabloniga mos barcha so'zlarni aniqlash dasturi.

```
import re
# Berilgan satrdan barcha "tarjima" nomli so'zlarni aniqlash
txt = "qoidalarga asoslangan tarjima, statistik tarjima va neyron to'rli tarjima"
x = re.findall("tarjima", txt)
print(x)
```

**#NATIJA:** ['tarjima', 'tarjima', 'tarjima']

**3-masalal:** search funksiyasi yordamida 1- probel pozitsiyasini aniqlash dasturi.

```
import re
txt = "Pythonda regulyar ifodalar"
x = re.search("\s", txt)
```



```
print("Birinchi probel quyidagi pozitsiyada joylashgan:", x.start())
#NATIJA: Birinchi probel quyidagi pozitsiyada joylashgan: 8
4-masala: split funksiyasi yordamida matnni bo'laklarga ajratish dasturi.
import re
#Har bir bo'sh joyga ko'ra matnni split qilish:
txt = "1989 yil 21 oktyabrdan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan"
x = re.split("\s", txt)
print(x)
#NATIJA:
['1989', 'yil', '21', 'oktyabrdan', "o'zbek", 'tiliga', 'davlat', 'tili', 'maqomi', 'berilgan']
5-masala: sub funksiyasiga doir dastur.
import re
#Barcha probellarni "5" raqami bilan almashtirish
txt = "Beshikdan to qabrgacha ilm izla"
x = re.sub("\s", "5", txt)
print(x)
#NATIJA: Beshikdan5to5qabrgacha5ilm5izla
6-masala: sub funksiyasiga doir
import re
#Berilgan satrdagi dastlabki ikkita probelni "9" raqami bilan almashtirish
txt = "O'zbek tili so'zga boy"
x = re.sub("\s", "9", txt,2)
print(x)
#NATIJA: O'zbek9tili9so'zga boy
7-masala: Berilgan matndan barcha sonlarni ajratib olib chop etuvchi dastur .
import re
satr = 'Kompyuter lingvistikasidagi 1-korpus Brawn korpusi bolib, u 1961 yilda yaratilgan va
jami 1000000 so'zdan iborat'
pattern="\d+"
result=re.findall(pattern,satr)
print(result)
#Natija: [1, '1961', '1000000']
8-masala: Raqamlardan iborat bo'lgan satrdagi moslikni qanoatlantiruvchi raqamlar guruhini
aniqlash dasturi.
import re
#Birinchi probel oldidagi 4 ta raqam va undan keyingi 2 ta raqamni aniqlash
import re
string='2022 06356,2102 1111'
pattern='(\d{4}) (\d{2})'
# mos obyektni matchga o'zlashtirish
match=re.search(pattern,string)
if match:
    print(match.group())
else:
    print("moslik mavjud emas")
NATIJA: 2022 06
9-masala:So'zni kelishik qo'shimchasi bo'yicha tekshirish dasturi.
#ushbu misolda ba'zi cheklanishlar mavjud
txt = 'kitobning'
suffix=('ning','ni','ga','ka','qa','da','dan')
isValid=txt.endswith(suffix)
print(isValid)
if isValid:
    print("berilgan so'zning asosi ot so'z turkumiga tegishli")
else:
    print("boshqa so'z turkumini kiritdingiz")
```



**NATIJA:** True, berilgan so'zning asosi ot so'z turkumiga tegishli

Yuqoridagi masalalarни kompyuter tilshunosligiga doir matnlarni qayta ishlash jarayonlariga tadbiq etish samarali natijalar beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Natural Language Processing with Python. Analyzing Text with the Natural Language Toolkit. Steven Bird, Ewan Klein and Edward Loper. O'REILLY.
2. Speech and Language Processing. Daniel Jurafsky, James H. Martin. 2020
3. Allan J. Understanding Natural Language. Cambridge (UK), 1999.
4. [https://www.w3schools.com/python/python\\_regex.asp](https://www.w3schools.com/python/python_regex.asp)



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.

**Masayidova Zulfiya Shamuradovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

19-IDUM ning boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchisi

**Alimova Gulondan Karimovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar 19-IDUM ning

boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchisi

**Annatasiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich, to'liq idrok etish, o'zaro fikr almashish, o'qish darslari.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lif tizimida alohida o'rinn tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limi tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lif darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq « dars » degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod – ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – norasmiy bahs – munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat. Interfaollik, bu – o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi – o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi – o'qituvchi, o'quvchi – o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironqa ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladir.

O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lif o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lif o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media – ta'lif metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'lilda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida uyuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lif orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lif jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston Davlatini birlgilikda barpo etamiz” –T.: “O'zbekiston” 2016-y -56-b.
2. Ta'lilda axborot texnologiyalari -T.: 2000. -131b.
3. Tolipov O'.Q., Usmonova M., Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (O'quv qo'llanma) - T.: Fan.2006.-262 b



**МАКТАБЛАРДА ТАСВИРИЙ САН'АТ ФАНИ БО'YICHA О'QUVCHILARDA  
ШАКЛАНISHI LOZIM BO'LGAN KO'NIKMALAR**

**Masharipova Oygul Sadullayevna**

Xorazm viloyati Urganch shahar 19- IDUMning  
Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

**Rahmatillayeva Dildora Otanazar qizi.**

Xorazm viloyati Urganch shahar 19- IDUMning  
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

*Annotatsiya:* ushbu maqolaning mazmun mohiyati quyidagicha, ta'lim sifatini oshirishda pedagog tomonidan yangicha g'oya metodlarning dars jarayonida qo'llanishi, o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirishda samarali usullar va mashg'ulotlarni qo'llashda zarur tavsiyalar berilgan. Ta'sviriy san'at fani bo'yicha o'quvchilarda ko'nikma shakllantirish haqida bayon qilingan.

*Kalit so'zlar:* pedagogik faoliyat, tasviriy, amaliy-bezak san'ati, me'morlik san'ati.

O'qituvchi faoliyati boshqalar faoliyatini boshqarish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi faoliyati o'quvchilar faoliyati asosida quriladigan faoliyatdir. Misol uchun olganda, murakkab, ziddiyatli bir holatda pedagog baqirmslikka, u yoki bu shaxsni ajratib ko'rsatmaslikka harakat qilishi kerak, balki tarbiyalanuvchilar o'zлari mazkur sharoitdan to'g'ri xulosa chiqarishi uchun imkoniyat bermog'i lozim (tikilib turishi, jim turishi, keskin gapirishi). Albatta, bunday yechim tarbiyalanuvchilarning yuqori darajada ongliligidan dalolat bermasada, ular tarbiyachi maqsadi sari borganligini bildiradi. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xos tomoni shundaki, u pedagog va o'quvchi maqsadi ham bo'lib qolishi kerak. Albatta, bu maqsad o'qituvchi uchun yaqin va tushunarli, chunki u: «Sen bilishing, uddalashing, bajarishing kerak», deb talab etadi. Lekin bola shu birgina kun tashvishi bilan yashaydi, bugungi kun muammosini hal etib boradi. Kelajak uning uchun juda ham uzoq. Bunday qarama-qarshilikni tarbiya fojiasining asosi deyish mumkin. Pedagog hozirgi zamон ruhi bilan yashash orqali kelajakni ko'ra bilishi, uni tashkil eta bilish uning uchun o'ta murakkabdir. Buni tushungan mohir pedagoglar faoliyatining asosini bola ehtiyojiga tayanib yo'lga qo'yadilar, ya'ni o'zining faoliyat dasturini bola dasturiga muvofiq holda tuzadi. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan jamiyatning ijtimoiy vazifasini belgilashda shaxsiy tashabbus ko'rsatishni, ya'ni o'qituvchi pedagogik pozisiyasida jamiyat maqsadi ortib borishi o'z ifodasini topishi kerak. Aniq faoliyatning maqsad va vazifalarini ijodiy tushunib yetish; bolalar qiziqishlarini hisobga olish va ular o'quv jarayonidagi maqsadlarini amalga oshirishda faoliyat turlari va mazmunini o'zgartirib borishi kerak. Pedagogik mehnatning obyekti: - Inson bo'lib «shakllanayotgan shaxs ma'naviy turmushining nozik tomonlari - aql, his, iroda, ishonch o'z-o'zini anglash»dir. O'quvchilar tasviriy san'at faniga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- tasviriy san'atning kishilar hayotidagi ahamiyatini tasavvur qilish;
- tasviriy, amaliy-bezak san'ati, me'morlik san'atida ishlataladigan asosiy atama va tushunchalarni hamda ularning ma'nosini bilish;
- miniyatURA san'ati haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish;
- tasviriy san'atning nazariy asoslarini bilish va ularga amaliy tasviriy faoliyatda rioxasi qila olish;
- tasviriy san'at asarlarining ifodalilik vositalari (chiziq, siluet, rang, ritm, simmetriya, assimetriya, kompozitsiya)ni bilish va ularni amalda qo'llay olish;
- tasviriy san'atning asosiy tur va janrlarini bilish;
- o'zbek xalq amaliy bezak san'atining turlari va uning mashhur ustalari va ularning asarlarini bilish;
- tasviriy san'atda ijod qiluvchi eng mashhur o'zbek va chet el rassomlarining hayoti va ijodini, ularning ayrim asarlarini bilish;
- O'zbekiston va chet el mamlakatlarining eng mashhur me'morchilik obidalarini bilish;
- 15-20 rang nomlarini bilish va ularni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish;
- tasviriy va amaliy san'at asarlarini badiiy idrok eta olish;
- badiiy bezak ishlarini erkin bajara olish;
- qush, hayvon, odamni asliga qarab rasmi va haykalini tasvirlay olish;
- tasviriy faoliyatda turli material va uslublardan foydalana olish;



- afsonaviy mavzularda rasm va haykallar ishlaganda ularni fantaziya asosida tasvirlay olish;
- tasvirlar ishlaganda o'zbek san'atining milliy badiiy an'analarida maqsadga muvofiq foydalana olish;
- tasviriy faoliyat jarayonida texnika xavfsizligi va gigiyena qoidalariga rioya qila olish.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar tasviy san'at fani bo'yicha quyidagi ko'nikmalarini egallashlari zarur: tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan ish jihozlari va o'quv qurollaridan foydalana olishlari, tabiiy materiallardan foydalanish tartib qoidalariga amal qilishlari,tuzilishi jihatidan sodda bo'lgan o'yinchoqlarni rasmga, chizmaga ko'ra haykalini ishlash,asosiy (qizil, sariq va zangori) va hosila (zarg'aldoq, ko'k, binafsha va yashil) ranglarni, shuningdek, oq, qora, kul rang kabi ranglar bilan ishlashni bilishlari, ranglar haqida (issiq va sovuq) tasavvurga ega bo'lish, qalam, qog'oz, bo'yoq va mo'yqalamdan to'g'ri foydalanish, tasvir mazmuniga ko'ra qog'oz o'lchami va holatini (gorizontal,vertikal) to'g'ri belgilay olish,rasm chizish va haykal yasash tartibini o'rgatish lozim.

Jamiyatning asosiy qatlami hisoblangan yoshlarga to'g'ri ta'lim berish har bir pedagog uchun ulkan ma'suliyatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tasviriy san'at nima? Sh.Abdullayev
2. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent 2007
3. Ziyonet.uz



## BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH

Nekova Mashhura Komiljonovna

Navoiy viloyati Karmana tumani

26-son mактабнинг boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish va bunda qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, nutq, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasvirlab berish, inssenirovka, savod, o'qish, talaffuz, tovush.

Nutq ikki ko'rinishga ega –og'zaki, va yozma nutq. Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'lsa ham, har birining o'ziga xos xususiyati bor. Og'zaki nutqda tovushlar, so'zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini izlab topishimiz kerak.

Chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o'quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqali odamzot o'zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi.

Nutq barcha insonlarda ham bir xilda-to'la rivojlangan yoki shakllangan bo'lavermaydi. Ba'zi bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi.

Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o'stirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lган bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi.

Nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosi mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, sintez kabi mantiqiy usullar qo'llaniladi. O'qigan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar. O'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergen savollar yordamida asarning mazmuni aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoya qilish ancha oson, boshqa turlari esa ancha qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakatlari asosiy ro'l o'ynaydi.

O'quvchi o'qigan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi; ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), o'zaro taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlargaga bo'ladi va har qaysi qismdagini asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analistik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o'tiladi, ya'ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'yaydilar. Sarlavha topish ustida ishslash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.



Tanlab hikoyalash ham bolaning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi:

- 1) o'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravshda ajratib so'zlab beradi;
- 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;
- 3) hikoya mazunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi. Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular: 1) ijodiy qayta hikoyalash; 2) inssenirovka qilish; 3) o'qilgan asarga rasm chizish; hikoyani davom ettirish.

1. Ijodiy qayta hikoyalashda o'qilgan hikoyaning sharoitini, yo formasini o'zgartirib hikoya qilinadi, yoki hikoyani yangi epizodlar bilan to'ldirib hikoya qilinadi.

2. Inszenirovka yoki sahnalashtirishda o'quvchilar o'qilgan hikoyani sahnabop qilib o'zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kostyum, qatnashuvchilarning imoishorasi haqida o'yaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o'rgatishda eng muhim ish hisoblanadi).

3. O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan rasm chizadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.G.Dilova. O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati.
2. U.Masharipova. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.
3. Maktablarning boshlang'ich sinf o'qish darsliklari.



## ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARNING IKKINCHI TILNI O'QITISHDAGI O'RNI.

**Abdulxay Qosimov, Nasibullo Qurbanov,**

**Alimardon Toshmatov.**

Farg'onan Davlat Universiteti,  
Amaliy inglez tili kafedrasи o'qituvchilari.

### **Annotatsiya.**

Bugungi kunda nafaqat inglez tili, balki boshqa xorijiy tillarni zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanib o'qitish kelajakda yetuk kadrlarni tayyorlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda tillarni o'qitishga bo'lган kuchli e'tibor sababli, bugungi kunda mamlakatimizda ikki va undan ortiq xorijiy tillarni biluvchi yosh avlod shakllanmoqda. Davlat darajasidagi islohotlarning amalga oshirilishi, kelajagimizning poydevori bo'lган yoshlarga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bundan tashqari, o'qituvchilar ham xorijiy tillarni o'qitishning samarali usullarini tadqiq qilib, bugungi kunda o'qitish tizimiga tatbiq qilishmoqda. Shuningdek, o'qitishning Finlandiya tajribasiga aloxida e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy metodlar, o'qitishning Finlandiya tajribasi, o'qitish usullari, tenglik.

### **Kirish.**

Bugungi kunda har bir mamlakat ta'lim tizimiga aloxida e'tibor qaratmoqda. Xususan, sharq va g'arb mamlakatlarining o'qitish tizimlari o'tgan 50 yil davomida tubdan takomillashtirildi. 2018-yilda nufuzli "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, finlyandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishdi. Bundan tashqari, tadqiqotlar finland bolalari dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi ham ekanligi e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigan birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarlik, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi. Ushbu muvaffaqiyatlar ortida chuqur ta'lim islohotlari yotibdi. Xususan, tadqiqotchilarning fikricha finland ta'lim tizimining bu darajadagi muvaffaqiyatiga hammaga teng imkoniyatlar taqdim etuvchi ta'lim tizimida deya izohlashadi.

### **Finlandiyada ta'lim islohotlari.**

Ushbu davlatda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari boshqa rivojlanayotgan davlatlar ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Islohotlarning dastlabki bosqichlarida, Finlandiyada birinchi navbatda maktablarni kichik jamiyatlarga aylantirishga harakat qilindi va buni ta'milash uchun uning asosi — o'quvchilarni tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. O'quvchilarni tayyorlash uchun uch yillik bakalavr va ikki yillik magistratura darajasidan iborat jami besh yillik dastur joriy qilindi, o'quvchi bo'lish uchun magistratura darajasiga ega bo'lish majburiy qilib qo'yildi. Bu esa o'z navbatida mamlakatdagi o'quvchilar ilmiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi.

Finlyandiyada ayni paytda asosiy e'tibor ta'lim sifatiga qaratilgan. Ta'lim jarayoni doimo mamlakat ishlab chiqarish sektori ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq kechadi. Ya'ni Finlyandiya ta'lim jarayonlariga yondashuvni o'zgartirish va o'quvchilarni imtihonga emas, hayotga tayyorlash evaziga ushbu ko'rsatkichlarga erishdi. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etishimiz kerak. Fin o'quvchilari xalqaro tadqiqotlardagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng oldingi o'rnlarda bormoqda.

Umuman olganda, ta'lim tizimida hamma teng. O'quvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlar eng muhim omil sanaladi. Bundan tashqari, o'quvchilar uchun maktablarda eng so'nggi texnologiyalardan foydalanib dars o'tish uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Qisqacha qilib aytganda, Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi.

### **O'zbekistonda ta'limga doir amalga oshirilayotgan islohotlar.**



Prezidentimiz 2020-yil 30-oktyabr kuni mamlakatimizda ta'lif-tarbiyatizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'lif sifatini oshirish bo'yicha mulohazalarini bildirar ekan, maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidlagandi. Bu borada jahon tajribasida eng ilg'or mamlakatlardan biri sifatida Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarorlari bilan mamlakatimizda pedagogik yo'naliishlarda bakalavr o'qish davri 3 yil qilib belgilandi. Shuningdek, pedagogik yo'naliish talabalarining o'qish faoliyati bevosita amaliyot bilan bog'liq bo'lishi belgilandi.

Shuningdek, 2020-yilning 6 noyabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida yangi Milliy o'quv dasturini ishlab chiqishda xorijlik ekspertlar, jumladan, Finlyandianing malakali mutaxassislarni jalb qilish nazarda tutilgan. Umumiy qilib aytganda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lif islohotlari, yosh o'quvchilar, talabalar va professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan.

### Xulosa.

Mamlakatimizda Xalq ta'lifi va Oliy ta'lif tizimini rivojlantirish bugungi kunning asosiy ishlaridan biridir. Finlyandiya tajribasini o'rganish va uni mamlakatimiz ta'lif tizimiga tatbiq qilish uchun xorijiy ekspertlar jalb qilinishi lozim. Shuningdek, xorijiy ekspertlar bilan onlayn uchrashuvlar o'tkazish, ularning O'zbekistonga tashrifini amalga oshirish, Finlyandiya hukumati tomoni bilan kelishgan holda finlandiyalik mutaxassislarni yurtimizga taklif qilish va doimiy faoliyatga jalb qilish ta'lif sifatining o'sishiga katta yordam beradi.

### Foydalanimanilgan adabiyotlar.

1. Committee for the Future (2013). Uusi oppiminen [New Learning]. Eduskunnan tulevaisuusvaliokunnan julkaisu 8/2013. Helsinki: Eduskunta. Retrieved from: <http://www.helsinki.fi/behav/uutisarkisto/2013/trip.pdf>
2. Curriculum Reform in Finland (2015). Finnish National Board of Education. Retrieved from: [http://www.oph.fi/download/151294\\_ops2016\\_curriculum\\_reform\\_in\\_finland.pdf](http://www.oph.fi/download/151294_ops2016_curriculum_reform_in_finland.pdf)
3. Fullan, M. (2011). Choosing the wrong drivers for whole system reform. Centre for Strategic Education Seminar Series Paper No. 204.
4. OECD (2010). Inspired by Technology, Driven by Pedagogy: A Systemic Approach to Technology-based School Innovations. Paris: OECD.
5. OECD (2013). Innovative Learning Environments. Paris: OECD.
6. Sanna Vahtivuori-Hänninen, Irmeli Halinen, Hannele Niemi, Jari Lavonen, and Lasse Lipponen (2014). A New Finnish National Core Curriculum For Basic Education and Technology as an Integrated Tool For Learning. In H. Niemi Et Al. (Eds.), Finnish Innovations & Technologies In Schools (s. 21–32). Sense Publishers.



## GRAMMATIKANING ONA TILI O'QITISHDAGI O'RNI

**Qulmatova Maxfuzা Xatamovna**

Qarshi shahar 12-sон umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Ochilova Nigora**

Qarshi shahar 12-sон umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada grammatikaning ona tili o'qitishdagi ahamiyati va uni o'qitishdagi qiyinchiliklar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, grammatika, sintaksis, morfologiya, til, mashq, so'zlar.

Ona tili darslarida o'quvchilarga beriladigan bilimlar keyingi yillarda asosan nazariy asosga qurilayotganligi amaliy malakalarning sayozlashuviga olib kelmoqda. Darsda asosan o'rganilayotgan qoidani yod oldirish va unga darslikdan misol keltirish va mashq ishslash bilan cheklanilmoqda. Dars davomida faqat darslik bilan ishlanmoqda. Oqibatda o'qituvchi darslik o'qituvchisi, o'quvchi darslik o'quvchisi bo'lib qolmoqda. Shu sababli o'quvchilar darslikdan tashqari talablarni bajara olmayaptilar, hayotning o'zi misol va qoida ekanligini anglab yetmayaptilar. Shunday ekan, amaliy bilimni shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga diqqat qaratish lozim. Buning uchun darsda faqat mashqlar bilan cheklanmay, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, lug'at ustida ishslashga o'rgatish, ularda to'g'ri talaffuz normalarini shakllantirish hamda fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish kerak.

Grammatikani yaxshi bilish boshqalarning fikrini ham to'g'ri tushunishga, aniq anglab olishga yordam beradi. To'g'ri so'zlay olish, xatosiz yozish uchun grammatikadan olgan bilimlarini amalda qo'llay olmagan o'quvchi to'g'ri yozish qoidalarini ham ongli o'zlashtira olmaydi. Hozirgi kungacha tilshunoslikning dolzarb mavzulariga doir o'nlab yirik ishlar yuzaga keldi. Bunga A. G'ulomovning morfologiyaga oid, G. Abdurahmonov, M. Asqarovarning qo'shma gap sintaksisiga oid va boshqa bir qator olimlarning so'z turkumlariga oid ishlari o'zbek tilshunosligining katta yutuqlaridan sanaladi.

Grammatikaning teng huquqli bo'limlari morfologiya bilan sintaksis doim bir-biri bilan bog'liqidir. Mustaqil so'z turkumlari-ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabilar gapda ma'lum bir sintaktik vazifani bajaradi, ular gapning biror bo'lagi bo'lib keladi. O'quvchi sintaksisni o'rganib, ayrim so'z turkumlarining morfologik belgilarini ularning sintaksis xususiyati bilan solishtirib, til hodisalarini ongli tushuna boradi. M: sifat turlanmaydi, gapda, odatda, aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi. Lekin sifatlar ba'zan ot kabi qo'llanib, gapda ot bajaradigan vazifalarda keladi.

Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin.

Bunday paytda ular turlanadi. yaxshilarni yaxshilarga

O'quvchilar bunday hodisalarini anglay borib, morfologiya bilan sintaksisning aloqasini, so'z turkumlarini, uning tabiatini bila boradilar. 5-7-sinflarda sintaktik tushunchalar hosil qilish uchun alohida dars soatlari ajratilmagan, balki morfologik mavzularni o'rganish bilan birgalikda olib boriladi. Yangi sintaktik vazifalarni aniqlash morfologiyadan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida bajariladigan mashqlarni to'ldirish uchun ko'maklashadi.

Grammatik tushunchalar turli grammatik ta'rif yo qoidalar orqali izohlanadi. Grammatik ta'riflar u yoki bu til hodisasing mazmunini, asosiy xususiyatlarini, belgilarini o'zida ifodalaydi. Grammatik ta'rif va qoida tufayli o'quvchilar u yoki bu mavzuni ongli va tez o'zlashtiradilar, fikrni ixcham ifodalash usulini o'rganadilar. Ta'riflash mumkin bo'limgan ayrim til hodisalarini qoidalar orqali beriladi.

Kursning orfografiya, punktuasiya kabi bo'limlari, shuningdek, ma'nosi keng bo'lgan (qo'shma va qisqartma so'zlar, kelishiklar...) dalil va kategoriylar ham qoidalar orqali o'rganiladi. Ta'rif va qoidalar ona tilini ongli o'zlashtirish asosidir. O'quvchilar grammatik ta'riflarni yod olishlari mumkin. Lekin bunda onglilik muhim o'rinn tutadi. Maktab tajribasida shunday ham bo'ladi, ayrim o'quvchi ta'rif mohiyatini tushunsa-da, uni kitobdagiday so'zma-so'z aytib berolmaydi. Bunday xollarda qoidani kitobdagiday qilib aytib berishni talab qilish metodik jihatdan to'g'ri emas. Ba'zan o'quvchi grammatik ta'rifi darslikdagiday yod qilib aytib bersa ham, mustaqil misol keltira olmaydi.



O'quvchi grammatik ta'rif yo qoidani darslikdagiday aytib bermasdan, balki o'sha qoidaning mazmunini o'z so'zlari bilan bayon etib bersa, bu uning mavzuni yaxshi tushunganligini ko'rsatadi. Shuning uchun maktab ta'llimida ba'zan erkin ta'rifga yo'l qo'yiladi. Lekin bu o'rinda ham ehtiyojkorlik talab etiladi. Ayrim ta'riflar shunday mustahkam bo'ladiki, uning tarkibidan biror so'zni tashlab ketish yoki almashtirish mumkin emas. Ma'nosi o'ta mavhum (umumlashgan) terminlar o'qituvchi tomonidan izohlanishi shart.

Masalan: belgi so'zi faqat rangnigina emas, u shakl-hajm, xil-xususiyatga, maza-ta'm kabi tushunchalarni ham bildiradi. Yoki "predmet" termini juda keng ma'noda qo'llanishini tushuntirish kerak.

Bular: insonga oid so'zlar - ishchi, dehqon, kosib narsa va jism nomlari - bo'r, ruchka, kitob voqe-a-hodisa nomlari - shamol, ko'klam jonivorlar nomi - qo'y, chumchuq belgi-sifat nomlari - yaxshilik, tezlik harakat-holat nomlari – chopiq, yig'im va boshqalar.

Grammatika o'qitishda terminlar ham uziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir grammatik termin o'zi ifoda qilayotgan grammatik tushunchaning asosiy belgilarini ifoda qilishi kerak. Grammatik terminologiyada izchillikni, bir xillikni ta'minlash uchun bir hodisa hamma vaqt bir xil termin bilan aytilishi shartdir. Har bir ta'rif yoki qoida tarkibida bir yoki undan ortiq termin ishlataladi.

Masalan: "Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi tuslanish deyiladi" degan ta'rifni ko'raylik. Bu ta'rifda "fe'l", "shaxs-son", "tuslanish" degan terminlar ishlataladi. Grammatik terminlar vositasida o'quvchilar so'z turkumlarini, gap bo'laklarini ajratishni o'rganadi. Demak, grammatik bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilarda grammatik tushuncha hosil bo'ladi. Hosil qilingan grammatik tushuncha bundan keyin o'rganiladigan grammatik bilimlarni o'zlashtirish uchun, o'zlashtirilgan grammatik bilim yangi tushunchalar hosil qilish uchun asos bo'ladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov X., Rafiyev M., Shodmonqulov D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1993 yil.
2. A'zamov S. Maktab grammatikasi va ilmiy grammatika xususida. "Til va adabiyot ta'limi", 1992 yil, 2-son, 32-33-bet.
3. Shamsiyeva M. "So'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish". Ilmiy ishlar tuplami. TDPI., 1991 yil,



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O'QITISH METODIKASI

Rajabova Omangul Xudoyberganovna

Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani  
20-sونumumiy о'рта та'лим мактабининг  
boslang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boslang'ich sinflarda ilmiy-ommabop asarlar, maqolalarni o'qitish metodikasi haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** asar, maqola, kuzatish, tarix, sayohat, vatan, metod, tabiat, mehnat.

Boslang'ich sinflarda ilmiy-ommabop asarlar o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayat haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o'rgatish.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganishda tabiat hodisalarini kuzatish, o'quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergen o'zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo'lган insonlar bilan uchrashuvlar uyshtirish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi asarlar Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, buyuk siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida bilim beradi. O'qish darsliklaridan o'rın olgan Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o'quvchilarni nafaqat o'tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi maqolalarni o'qish bilan bog'liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (masalan, daraxt kurtaklarining bo'rtishi), o'quvchilarni yuz bergen o'zgarishlarni, zavodlar, elektr stansiyalarini qurilishi kabi buyuk tarixiy voqealarning guvohi va ishtirokchilari bo'lган kishilar bilan uchrashuvlar uyshtirish maqsadga muvofiq. 1-sinf dasturida o'qish bilan bog'liq holda kuzatish, ekskursiya, fan darslar mo'ljallanadi. Masalan, yil fasllari (kuz, qish, bahor, yoz) da mavsumiy tabiat hodisalarini (ob-havoning o'zgarishi, o'simlik va hayvonlarning hayoti) ni, shuningdek, kishilarning mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog', xiyobonlarga) ekskursiyalar o'tkazish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar bilan bog'liq holda fan darslar o'tkazilib, o'quvchilarning o'zlari yiqqan, shuningdek, o'qituvchi olib kelgan daraxt kurtaklari, gullar, turli o'simlik va boshqalar o'rganiladi. Ekskursiyada ko'rganlaridan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyshtiriladi. Fan darslarida ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilar ilgari baxtli hayat uchun, o'z hayatlarini yaxshilash uchun, ota-bobolarimiz dushmanidan vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; bolalar mehnat hayatning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Mavjud dasturga ko'ra, 2- sinf o'quvchilari "Toshkent metrosi" mavzusidagi maqolalarni, 4- sinfda esa "Asrga tatigulik kun" asarini o'qish orqali o'tmis ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati, kurashi haqida Yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, ularda materialistik dunyoqarashni shakllantiradi, mehnat qilish zarurligini tushunishlariga yordam beradi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darslarini uyshtirishda quyidagi reja varianti (jadvali) asos qilib olinadi:

- 1) o'qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o'tkazish;
- 2) maqolani yoki uning bo'limini o'qish, ayrim so'zlarning ma'nosini tushuntirish;
- 3) maqola yoki uning bo'limi rejasini tuzish;
- 4) o'qilgan maqola yuzasidan suhbat;



- 5) o'qilgan bo'limni asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yozish;
- 6) reja asosida maqolani qayta o'qish;
- 7) maqolani yaxlit o'qish; bunda bolalarni qayta himoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o'zlashtirishlariga erishish maqsadi ko'zda tutiladi;
- 8) xulosalash va umumlashtirish;
- 9) reja asosida qayta hikoyalash.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiat taraqqiyoti haqida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e'tibor berish zarur.

Tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlar, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; o'quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Ilmiy-ommabop asarni uzviy birlikda o'rganish o'quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy-adabiy hodisalarini, ular o'rtasidagi umumiylilikni, har bir davrga ega xususiyatlarini anglab olishlarini ta'minlaydi. Ular o'quvchilarni kelgusida gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishiga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stradi.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Istalgan asarning obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, dalillar va ularning bir-biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiat va tabiatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.
2. U.Masharipova O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.
3. Internet materiallari.



**O'QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYA VA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI**

**Rajabova Rayxonoy Ravshanbek qizi  
Adamova Nasiba Komilovna  
Xorazm viloyati Gurlan tumani  
28-umumiy o'rta ta'lif maktabining  
bosholang'ich ta'lif fani o'qituvchilari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dars jarayonida o'quvchining faolligini oshirish, iqtidorli o'quvchilarни aniqlash, ularagi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, interfaol metod, qiziqish, usul, iqtidor, harakat, qobiliyat.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodlardan yuqori malakali kadrlar taylorlash uchun avvalo, ta'lif muassasalarida o'qiyotgan o'quvchilarning kreativligini (ijodiy faolligini) oshirishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bunga ta'lif sohasida to'siq bo'luvchi bir qancha masalalar mavjud. Masalan, o'quvchilar qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalarda o'qituvchi o'zi kreativ tarzda yondashmaganligi tufayli ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yilishi va dars jarayonida qo'llanilayotgan metodlar o'quvchilarda erkin mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Dunyoga kelgan har bir bola muayyan bir yo'nalishdagi qobiliyatga ega bo'ladi. Ba'zi bolalarning qobiliyati uning harakatida, faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin, shunday o'quvchilar borki, yashirin iqtidor sohibi bo'lishadi. O'z ustida doimiy ishlaydigan mohir pedagog esa ana shunday o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini ko'ra olishi, his qilishi lozim va ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarish uchun doimiy harakatda va izlanishda bo'lishi lozim.

Ta'lif- tarbiya jarayonida o'quv mashg'ulotlarining doimiy ravishda bir xilda takrorlanishi o'quvchilarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas'uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi, iqtidorli o'quvchilarda esa fanga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday holatlarning oldini olishning eng samarali yo'llari ta'lif jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni izchil va maqsadga muvofiq ravishda tatbiq etishdir.

Darslarni innovatsion metod va interfaol usullar bilan qurollangan holda tashkil qilish o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Uzluksiz ta'lif tizimi va yaratilayotgan o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari ham o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning iqtidori, iste'dodi va qobiliyatini ularning qiziqishlariga qarab aniqlash mumkin. Mahoratli o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularagi qobiliyatlarni rivojlantirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirmog'i lozim.

1. Har bir darsni qiziqarli, tushunarli, AKT vositalari bilan boyitgan holda mazmunli qilib tashkil qilish.
2. O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, iqtidorlarini rivojlantirib borishi.
3. O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanishi.
4. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni izchil ravishda bosqichma- bosqich amalga oshirib borishi lozim.

O'quvchilardagi mavjud iqtidorni kashf etish va uni rivojlantirish uchun ta'lif- tarbiya jarayonida darslarni ko'rgazmali, ko'rsatmali, multimediali va albatta innovatsion metodlarga asoslanib tashkil etish maqsadga muvofiqidir.

Mana shu maqsadni ilgari surgan holda, ta'lif jarayoniga ijodiy yondoshib, bosholang'ich ta'linda quyidagi "Tengingni top", "Dunyon qutqar", "Sehrli pillapoyalar", "Mening davomchim" va shu kabi usullardan foydalanish mumkin. Har bir o'quvchining nimagadir iqtidori bo'ladi. Ayrim o'quvchilarning yozma nutqi, boshqalarining og'zaki nutqi, kimningdir hisoblash malakasi, yana kimningdir tafakkur ko'laming keng bo'lishi, ayrim o'quvchilarning esa rasm chizish qobiliyati, ayrimlarning esa yaratuvchanlik qobiliyati, ijod qilishga qaratilgan iqtidori va qiziqishi kuchli bo'ladi. O'quvchilarda mana shunga o'xshagan qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda xizmat qiladigan "Mening davomchim" metodining mazmuni bilan tanishib o'tamiz. Bu metoddan kichik



guruhlarda ishslash anchagina qo'l keladi. Masalan, o'qish darsida yangi mavzuni tushuntirgandan so'ng darsning mustahkamlash bosqichida ushbu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Misol uchun 4- sinf o'qish darsligida berilgan Qudrat Hikmatning “Qish to'zg'itar momiq par” she'ri bilan o'quvchilarni tanishtirgandan so'ng bu metodga murojaat qilamiz. Bunda guruhdagi har bir o'quvchi bir- birining ishini davom ettirishi kerak bo'ladi. Guruhdagi birinchi o'quvchi qish fasli haqida ijodiy ish yozadi, ikkinchi o'quvchi og'zaki matn tuzadi, uchinchi o'quvchi qo'lidan kelganicha qofiyalarni kelishtira olmasa ham she'r ijod qilishga harakat qiladi, to'rtinchi o'quvchi qish manzarasini ifodalovchi rasm chizadi, beshinchi o'quvchi applikatsiya usulida rangli qog'oz, yelim, qaychidan foydalangan holda manzara hosil qilsa, oltinchi o'quvchi esa plastlindan foydalanib mavzuga oid narsalarni yasab ijod qiladi. Bu metod orqali sinflarning barcha kichik guruhidagi o'quvchilarning barchasi topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi va har bir o'quvchi topshiriqlarga ijodiy yondoshadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning iqtidorini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratib beradi. Bu metoddan boshlang'ich sinflarning boshqa darslarida ham foydalanish mumkin.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'limning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
2. Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari.



МОДЕЛЬ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧИТЕЛЯ ИСТОРИИ ЧЕРЕЗ ИСТОРИКО-ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ

Римма Рамилевна Замилова

Доцент Наманганского  
государственного университета

**Абстракт:** В данной статье мы сочли необходимым уточнить ключевые понятия: структура, структурный анализ, структура системы; выявить оптимальные способы структурирования и структурные компоненты системы подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности, функции каждого из компонентов, зависимость между ними и на основании полученных результатов обосновать закономерности процесса формирования профессиональных компетенций педагога профессионального образования.

**Ключевые слова:** структура, системы, образования, Гуманизации, обучения, процессе, дифференциация

A MODEL OF HISTORICAL THINKING OF A HISTORY TEACHER THROUGH A HISTORICAL AND ARTISTIC WORK.

Rimma Ramilevna Zamilova

Associate Professor of Namangan State University

**Abstract:** In this article, we considered it necessary to clarify the key concepts: structure, structural analysis, system structure; to identify the optimal ways of structuring and structural components of the system for preparing a future teacher of vocational education for design activities, the functions of each of the components, the relationship between them and, based on the results obtained, to substantiate the patterns of the process of forming professional competencies of a teacher of vocational education.

**Keywords:** structure, system, education, humanization, learning, process, differentiation

The structure of professional training is considered as an integrative unity of the formation of professionally significant personal qualities, methodological creativity and knowledge of the humanities, natural sciences, and historical disciplines. Historical disciplines in higher educational institutions are a system-forming element of the content of teacher education, since they reflect the fundamental knowledge on the basis of which professional skills are built and determine integrative links with subject knowledge. In the process of studying historical disciplines in order to form historical thinking in future teachers in the process of studying historical works. Structural and functional analysis of historical disciplines (including the special course "History in Fiction") showed that they have substantial and technological possibilities for the formation of historical thinking. In the course of the study, the programs of historical disciplines were analyzed with the aim of updating, expanding, coordinating tasks, content for the formation of historical thinking. The content of historical disciplines includes questions that reveal the formation of historical thinking, namely, to analyze a specific historical work, highlight the contradiction and formulate the problem of a historical event; predict the development of a particular historical situation; develop projects.

In the course of the study, the programs of the third and fourth courses of historical disciplines were analyzed in order to update, expand, and harmonize the tasks, content, and technologies of traditional courses. The content of historical disciplines includes questions that form the historical thinking of future history teachers in the process of studying historical literary preparation logic. A new form of concept has been developed - the "historical task" lesson, which represents the group, collective work of students on the basic concept for the study of a historical literary work with reflections on the described historical facts. The reference abstract as a teaching method ensured the interaction of students based on the operations of generalization, coding, "folding" of knowledge using conventional signs, symbols, schemes, etc. with the subsequent "deployment" of their content in the conditions of CSR (a collective way of learning and working in groups of shifts)

The technologies of problematic, binary lectures using discussion technologies are named; game simulation, book trailer technology, foresight technologies, swing of time, heuristic learning, positional game, project technology.



The second step in approaching the solution of the problem of the formation of historical thinking in our study is the involvement in independent research work of the future teacher of history through understanding the meaningful image of the theme of a historical literary work, its general idea, then the idea put forward is built first as a visual-figurative image, and then a meaningful historical event turns into a scheme, into meanings, into symbols. The elements of abstraction are intensified, the visual-pictorial solution of the meaningful image of the topic is replaced by the thesis form, acquiring an increasingly problematic hypothetical and prognostic character.

As a result of the work done, a model was designed for the formation of historical thinking through works of art in a future history teacher. This model includes target, content, procedural, evaluation and result blocks, criteria-evaluative and result blocks, the target block, reflecting the requirements of the State Educational Standard, defines nine competencies.

The content block defines scientific approaches to the construction of the following elements of the model. In the content block, the competency-based approach is used to distribute competencies: reading, communicative, acmeological, synergistic, pedagogical, motivational-cognitive, design, socio-cultural, political, civil. Pedagogical conditions, substantive, procedural, blocks are a single mechanism for organizing the process of forming historical thinking through works of art in a future history teacher. The procedural block defines the stages of work on the formation of historical thinking through works of art in a future history teacher. A set of pedagogical conditions ensures the effectiveness of each stage of the procedural block. The procedural block represents new technologies, new forms of education, methods, means and forms of work involved at each stage. For an adequate assessment of the level of formation of historical thinking through works of art, a table of criteria and indicators was presented to the future history teacher in the criteria-evaluation block. The effective block reflects the result of the implementation of the model - the transition of the competence of the future history teacher to a higher level of formation of foreign language competence.

Significant assistance in the development of a predictive model was provided by V.A. Slastenin's work "Professional self-development of a teacher", in which he notes that "the most general condition for the scientific organization of any activity is a clear idea of its initial product. In order for this goal - the result to be disclosed, it is necessary to develop a list of properties of a specialist graduate, which should be formed over the years of the student's stay at the HEI. You can make a list by identifying:

- a) real situations in which a specialist has to act;
- b) his job functions;
- c) required knowledge and skills. This is how the problem of the specialist model arises" [1].

V.L. Matrosov lays the following provisions in the basis of the predictive model of the professional activity of the future teacher:

To simulate the corresponding processes, to build models that simulate the corresponding processes, it is necessary to have a clear understanding of the essence (content) of these processes. The essence of building a predictive model and its implementation should be of a pronounced personal nature, aimed at taking into account the individual characteristics and capabilities of trainees Matrosov VL [2].

### **Список использованной литературы:**

List of used literature:

1. Slastyonin V.A. Professional self-development of the teacher. - M.: Pedagogy, 2000. - 180 p.; p.25
2. Slastyonin V.A. Designing the content of higher pedagogical education // Izvestiya RAO. – M., 2001. – 246 p.; p.45
3. Kodirov, N. (2020). Problems of the globalization of information culture in the current time. In: Știință, educație, cultură (Vol. 4, pp. 272-274).
4. KODIROV, Nodirbek. Problems of the globalization of information culture in the current time. In: Știință, educație, cultură . Vol.4, 15 februarie 2020, Comrat. Comrat, Republica Moldova: Universitatea de Stat din Comrat, 2020, pp. 272-274. ISBN 978-9975-83-094-2.
5. Kodirov N. M. TRANSFORMATION AND GLOBALIZATION OF INFORMATION MEDIA //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 12. – C. 83-93.
6. Kodirov N. M. SOCIAL AND PHYSICAL EXPERIENCE OF INFORMATION AND INFORMATION CULTURE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 3. – C. 165-170.



BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O’ZARO  
HAMKORLIGINI OSHIRISH CHORA TADBIRLARI VA AHAMIYATI

**Roziqova Maloxat Abdumuxtorovna**

Andijon viloyati Asaka tumani  
22-umumi o’rta ta’lim maktabining  
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada maktab bilan oilani hamkorligini yo’lga qo’yishda o’z tajribam davomida keng qo’llaydigan usul – “Qushning ikki qanoti” usuli hamda maktab bilan oilani hamkorligini yo’lga qo’yish bugungi kun uchun dolzrb ekanligi haqida fikr mulohazalar bildirilgan

**Kalit so’zlar:** tarbiya, ta’lim, “Qushning ikki qanoti” usuli, sinf rahbari.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohaga bo’lgani kabi yoshlari tarbiyasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, bugun o’sib ulug’ayotgan yosh avlodni kamol topishida maktab va oilaning o’zaro hamkorligini rivojlantirish o’quvchining komil inson sifatida kamol topdirishning eng asosiy vazifalaridan biri desak, aslo mubolag’a bo’lmaydi.

Maktab va oilaning o’zaro aloqadorligini oshirishning rivojlanishi va ota - onalarning maktab bilan bevosita qiziqib borishi, har jabbadan farzand tarbiyasida ijobiy iz qoldiradi. Jumladan, bola doimiy vaqtida ota - ona nazoratida bo’ladi. Bu esa, yoshlari o’rtasidagi jinoyatchilining oldini olishda eng samarali vostia bo’lib xizmat qiladi.

“Ho’sh, ta’lim jarayonida o’qituvchi, ota - ona hamkorligi nima sababdan lozim?” degan savol tug’iladi. Ma’lumki, bola yoshlik paytidanoq asosiy vaqtini maktabda o’tkazadi. Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o’rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. O’quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo’yishga erishadi;
3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta’minlaydi;
4. Ota-onalar o’rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko’taradi;
5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o’rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jaib qiladi.

Sinf rahbarining o’quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko’p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog’liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- O’quvchining o’quv mehnatiga tavsifnomasi, o’qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- O’quvchinnig ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o’quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo’qligi, sababi, ularga o’zining munosabati.

- O’quvchining o’z o’rtoqlari, o’qituvchilar bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarnig doirasi.

- O’quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o’quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

Oila ham o’z navbatida farzandi haqida o’z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma’lum axborotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uygaga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqt, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

- O’quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.

Ushbu vazifani amalga oshirishda sinf rahbarining orni beqiyos katta hisoblanadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g’oyat keng, ko’p qirrali bo’lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o’quvchining ota-onasi



ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo’lishni taqozo etadi. Yuqorida keltirilib o’tilgan fikrlardan ma’lum bo’ladiki, shaxsni tarbiyalashda oila, mакtab va mahallaning hamkorlik usullarining xilma-xilligini ko’rsatadi. Men, o’z shaxsiy faoliyatim davomida o’quvchilarimni ota – onalari bilan doimiy aloqalarni o’rnatib boraman. Ota-onalar bilan hamkorligini bir qushga qiyoslasak, qushning parvozi uchun uning ikki qanoti g’oyat muhim.

Masalan, o’z tajribam davomida ota-onalar bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish uchun “Qushning ikki qanoti” nomlangan usulni amaliyotda qo’llab kelaman. Ushbu usul hozirgacha yaxshi samara beradi. Bunda ota - onalar o’qituvchi faoliyatini yaqindan kuzatishlari farzandlari bilan birlgilikda dars tayyorlashlari hamda o’qituvchining pedagogik mahoratini bevosita kuzatishlari hamda baholashlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yoshlar tarbiyasini rivojlantiriish nafaqat, mакtab, oila yoki mahallaning ishi, balki, butun jamiyat oldida turgan eng ulkan vaifalardan biri hisoblanadi. Chunki, davlatning davlat sifatida ertangi kunini belgilaydigan insonlar albatta, bugun biz tarbiya qilayotgan yoshlar hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, har bir pedagog hodim o’z vazifasini sidqi dildan vijdonan bajarishi kerakligini aslo unutmasligi lozim.



### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ochilov M. “Muallim – qalb me’mori” T.: “O’qituvchi” 2001.
2. Ochilov M. “O’qituvchi odobi” T.: “O’qituvchi” 1997.
3. Ruvinskiy P.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.. – T. 1991 y.



AL-XORAZMIY - MATEMATIK OLIM

Shodiyeva Umidaxon Baxtiyorovna

O‘zbekiston tumani 29-maktab  
matematika fani o‘qituvchisi  
e-mail: shodiyeva@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada qomusiy olim Al-Xorazmiyning dunyo tamadduniga qo‘sghan hissasi, ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari, hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar to‘g‘risida fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** buyuk olim, ilm-ma’rifat, matematika fani, ta’lim-tarbiya

Jahon ilm-ma’rifatining buyuk namoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783- yilda Xorazmiyda dunyoga kelib, 847-850- yillar oralig‘ida Bog‘dodda vafot etgan. Xorazmiy tug‘ilib voyaga yetayotgan davrda Mavarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi. Olimning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Al-Majusiyidir. Ilmiy adabiyotlarida yozilishiga ko‘ra Xorazmiy boshlang‘ich ma’lumotni o‘z uyida olgan, chunki uning otasi diniy hamda dunyoviy bilimlardan xabardor bo‘lgan. Shu tufayli al-Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Muhammad Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug‘ullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o‘rgangan, arab, fors, hind, yunon tillarini ham o‘rganib, bu tilda yaratilgan, asarlarni ham o‘qiy oladigan bo‘ladi. Lekin Xorazmiyning vatanidan chetda yashaganligini turlicha sharhlashadi. Chunonchi, otasi majusiy kohinlardan bo‘lib, islomni so‘ng qabul qilganligi uchun xam arab mutassablari uni ta’qib qilganligi sababli u Xorazmiy tashlab ketishga majbur bo‘lgan degan fikrlar ham mavjud. Xorazmiyshunos olim A. Ahmedov xalifa Xorun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun-ar Rashid Marvda xalifa noibi bo‘lib turganida saroyida juda ko‘p olimlarni to‘plagan, so‘ng xalifa bo‘lib ko‘tarilgach ularni ham Bog‘dodda olib ketganini ta’kidlaydi. Biz A.Ahmedovning fikriga qo‘shilgan holda, yana quyidagilarni ham bayon etmoqchimiz. Buning sabablari -birinchilardan, o‘sha davrda barcha ilmga intilgan olimlar ma’lum fanlarni egallab olgandan so‘ng ilm-fan markazlariga safar qilganlar va u yerda yetuk olimlar bilan muloqotda bo‘lib, turli fanlar bo‘yicha bahs-munozara yuritganlar, maxsus tayyorgarlikdan va sinovlardan o‘tganlar, o‘zlarini fan olamida sinab ko‘rganlar. Ikkinchidan, xalifalikda ilm markazi sanalgan Damashq va Bog‘dodda ilm-fanning taraqqiy etganligi va shaxsan xaliflarning ilm-fan taraqqiyotiga homiylik qilganligi ham olimlarni jalg etgan. “Baytul Hikma” da matematika, geodeziya, geografiya falakiyot va boshqa sohalar bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi va al-Xorazmiy maktabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon ahamiyatiga ega bo‘ldi. Xalifa al-Ma’mun hatto Muhammad al-Xorazmiy boshchiligida Hindiston va Rum (Vizantiya) Xazariya (Volganing quyi oqimida)gi ulkan mamlakatlarga bir necha marta ilmiy safarlar uyuştiradi. Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g‘oyasini ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida ham munosib hissa qo‘sghan. Xorazmiy matematika, geografiya, geodeziya, falakiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematika sohasida ulkan yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy ilmiy merosi bilan jahon fani taraqqiyotiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shti. “Al-kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala” asarida (“Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar ularni yechish yo‘llarni bayon etadi. Risola uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi-algebraik qism uning oxirida savdo muomlasiga oid kichik bir bo‘lim keltiriladi. Ikkinci - geometrik qism algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar haqida, uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi. Al-Xorazmiy matematika fonda abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo‘li bilan umumiyl yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo‘li bilan umumiyl usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. “Al-Jabr val muqobala” asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirish hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi. Shu asar tufayli “Al-Xorazmiy” nomli lotincha transkripsiyada “Algoritm” shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritmlariga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘llarini ham ochib berdi, meros taqsim qilishda, vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim etishda odamlarga kerak bo‘ladigan amaliy ishlarda zarur bo‘lgan hisoblarni taqdim etdi. Xorazmiyning matema-



tikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” (“Hisob al-hind)dir. Asar o‘nlik tizimi raqamlariga bag‘ishlangan. Xorazmiy hindlarning falakiyot va matematikaga oid ”Sindihind” nomli qo‘llanmasini o‘qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta ishlab yangi boblar qo‘shdi va uni ”Qisqargan sindihind” (“Algoritm hind hisobi haqida”) deb atadi. Asar faqat Sharqdagina emas, Yevropada ham qo‘llanma sifatida shuhrat taratdi. O‘nlik tizimining kashf etilishi sanoq tizimida inqilobiy o‘zgarish yasadi, deb ta’rif beradilar. Yevropaga o‘nlik tizim raqamlaridan foydalanib eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko‘rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan. Xorazmiy arifmetikaning asosiy belgilari bo‘lgan qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish qoidalarini yaratgan. Turli “jins”dagi sonlarni ko‘paytirishga ham e’tibor bergan. Masalan, minut, sekundlarni bir-biriga ko‘paytirish uchun, avvalo, bir xil shaklga keltirish, ya’ni sekund yoki minutga aylantirishni ko‘rsatgan. Bundan tashqari, ”Kitob suratil ard” (“Yerning surati kitobi”) geografiyaga oid dastlabki kitob sanaladi. Bu asar A.Ahmedovning tahminiga ko‘ra xaritani tasviflagan asardir. U Xorazmiyning ko‘p yillar olib borgan tekshirish-kuzatishlari natijasi bo‘ldi. Unda olim Sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib mamlakat va shaharlarning harakatlarini tuzadi, nomlar ro‘parasida uzunlik va kenglik darajalarini ko‘rsatadi. U geografiyaga oid risolasida yerni yetti iqlimga bo‘ladi, yer xaritasini tuzadi. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, olamning to‘rt xaritasi - Azov dengizi, Nil daryosi Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari xaritasi saqlanib qolgan. Uning yuqoridaq asari ham Sharq va G‘arbda katta ahamiyatga egadir. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Yuqoridaqilardan xulosa qilib aytish mumkinki, al-Xorazmiy ilmiy qarashlari, pedagogik va didaktik g‘oyalari, ta’lim usullari, ilm -fanga qo‘shgan ulkan hissasi bilan insoniyat aqliy kamolotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk bobomiz qomusiy olim sifatida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ravnaqida asarlari va qarashlari bilan o‘z o‘rniga ega zotdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yo‘ldoshev.Pedagogik texnologiyalar asoslari.-T.: 2003
- 2.Yo‘ldoshev, Yo‘ldosheva.Ta’limda marketing-T.: 2003
- 3.swww.pedagog.uz
- 4.www.Ziyonet.Uz



## METHODOLOGICAL OPPORTUNITIES TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION

**Shokirova Markhabo Sharifovna**  
**Juraeva Hidoyatkhon Maksudovna**  
Teachers of Department of Applied English at Fergana State University  
Phone: +998903005284  
m.sh.shokirova@pf.fdu.uz

**ABSTRACT:** The article deals with the importance of teaching the English language in ESP spheres of the higher education and the issues of formation of professional skills of future specialists, and analyzes research findings and ideas of researchers associated with this process and ways of their elimination, as reflected in this article.

**Key words:** foreign language, specialist, ESP, professional text, competence, measures, methodological preparation, methodological principle, education, career guidance.

### Introduction

Knowing foreign language is today's demand and requirement. So, we should find useful, simple and effective ways of learning foreign languages, they are all up to us, teachers of foreign languages. Our main purpose is to learn foreign language, and use it in practice. In addition, professional orientation of educational process interpreted like methodical principles. Coming true of these principles can be actively influenced for the task and educational proses of teaching FL like specialty. That is why this principle would be taken account as the measure, which provide as methodical preparation of learner.

Essence of professional orientation of education is to form professional quality of person. Nowhere, we can teach foreign language as professionally orientated. Foreign language is taught generally in all non-linguistic educational institutions. In these institutions, teaching of foreign language has special character, and it demands special curricula and method of teaching.

The problem of teaching foreign language had been analyzed by the scientists of the world and scientists of Uzbekistan (H.Palmer, M.West, I.A.Zimnya, L.S. Vygotskiy, J.J. Jalolov, T.K. Sattorov and others). Today, this problem has international importance and there are a lot of researches which deals with it.

Uzbek researchers also had been worked out on that problem which given below (D.R. Toshkhodjayeva, M.I. Abduvaliyeva, N. Akbarov, A.X. Jurayeva, SH.J. Usmonova, N.D. Ikromhonova and others).

Today, there are many didactical bases of language education among the researches. In particular, there was given problems of practical excesses of specialty in the two volume research of T.Q.Sattorov, also in his works we can find information about forming methodical factors of future foreign language teachers. In this book takes place such kind of problems like conditions, requirements of professional orientation in educational process, and opportunities of practical language subjects in forming methodical skills of future FL teachers and also content of functions, structural features of FL teacher's pedagogical activity. As well as, X.M.Korahodjayeva's research deals with "Methods of developing professional speaking skills of the students of special spheres by verb studying". S.N.Jurayeva's research deals with the problem of psychological factors influencing of professional formation of students' personality. S.A.Missirov's research deals with the lingua didactical basis of teaching the English language at vocational colleges. N.Akbarov's research deals with the pedagogical basis of forming professional culture in the students of the technical institutions.

The system of professional competence of the future specialist should correspond to its basic functions as training, developing, bringing up.

Training function consists in formation of bases of professional competence of students on the basis of mastering by it in the course of training of system of scientific knowledge of essence competence the approach, essence of is professional-personal competence etc. Mastering by ways of self-educational activity in the course of expediently organized independent work on system «the information-knowledge-the information».

Developing function is shown in its orientation on development intellectual, emotionally-strong-willed and motivational spheres of the person of the student in the course of knowledge,



decisions of necessary problems on management of the self-educational activity.

In the psychological point of view we may say that in the process of training future specialist's abilities, forecasting and reflection should be developed, the basic psychological mechanisms of self-education, self-development and self-determination are generated. In my opinion, if the student wants to learn or to do something himself or herself they will do it, this process should be natural, and here personnel wishes stands in the first place.

Today we have a lot of methods and technologies of teaching foreign languages. Some of them we don't use and others are widely used; still others have a small following, but offer useful insights. Some of the proposed materials can be adapted to the teaching language for specific purposes to the students of non-language faculties. In its place we should clarify the meaning of ESP and its purpose by teaching FL. ESP is defined to meet specific needs of the learners.

According to the definition of Dudley-Evans:

1. ESP makes use of underlying methodology and activities of the discipline it serves;
2. ESP is centered on the language appropriate to these activities in terms of grammar, lexis, register, study skills, discourse and genre;
3. ESP may be related to or designed for specific disciplines;
4. ESP may use, in specific teaching situations, a different methodology from that of General English;

The definition Dudley-Evans offers is clearly influenced by that of Strevens, P. English for Specific Purposes (ESP) is a young and developing branch of EFL such methods did not reflect students' interests and resulted in low learner motivation and poor participation.

With the spread of the student centered approach and the continued increase of international contacts in various spheres, much attention has been paid to the design of ESP courses that can prepare students for professional communication.

The subject of "Foreign Language for Specific Purposes" in higher educational institutions solves the problem of personality development and ensures systematic replenishment of professional knowledge, formation and development of communicative skills.

According to Matukhin D.L., Nizkodubov G.A., a strategy for improving the content and methods of teaching ESP involves the development of solving problems on the basis of theoretical study and experimental verification of learning technologies. With today's variety of methods of teaching foreign languages there is a selection problem of the most effective technologies and prospects of solving the problems of developing professional communicative competency.

Exploring the standards of higher education in recent years, it should be noted that there is the increased level of foreign language proficiency requirements for the students of non-linguistic faculties, not only in terms of the ability to produce professional information, but also the ability to exchange information at the understandable level for learners. To my mind, the analysis of such skills in practical terms allows us to identify easy ways of developing learners professional skills. We should pay attention for their attitude for capturing the knowledge according to the specialty and integration of subjects.

In conclusion, ideally, in establishing a learner-centered approach there should be a shift in FL pedagogy in the selection of the content of the course. This shift should serve the learners' interests and needs. We should use every time different technologies in order to make our lesson effective and interesting. Today's learner is very exigent. That's why we should work on ourselves hard in order to be good teacher of future specialists.

### References

1. Dudley-Evans, T. & St John M.J. Developments in English for Specific Purposes. A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press. 1998
2. Strevens P. ESP after twenty ears: A re-appraisal. In M. Ticko (Ed.), ESP: State of the art (1-13). SEAMEO Regional Language Centre. 1988
3. Matukhin, D.L., Nizkodubov, G.A., Zyubanov, V.Y., Khasanshin, Y.R., Obskov A.V. (2014). Methodological Basics of Blended Learning in Teaching English for Academic Purposes to Engineering Students. Asian SocialScience. Vol. 10, P 97-102.
4. Shaturnaya, E.A. Methods of teaching foreign language professional discourse by means of training-speech situations and roleplaying. PhD thesis (Education), Tambov. 2009.



**IJTIMOIY KOMMUNIKATIV MALAKANING BOLALARNING OG'ZAKI  
NUTQINI O'STIRISHDA TUTGAN O'RNI**

**Sodiqova Arofatxon Raxmonovna**

Pop tuman 5-MTT tarbiyachisi.

Tel: 99-93938-11-08

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalarning og'zaki nutqini o'stirish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, badiiy adabiyot, nutq, tarbiyachi, kichik yoshdagi bolalar.

Ichki dunyosi, ma'anaviy qiyofasi, xulq-atvori, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo'ladi. CHunki har qanday kishining madaniyatligi, odobi, bilim darajasi, faxm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, katta xayotga tayyor yyoki tayyor emasligining nutqida o'z aksini topadi. Kimning tili boy bo'lsa, kim so'zlarni adabiy til asosida to'g'ri, aniq, ravon, ifodali va tushunarli talaffuz qilsa, o'z ona tiliga chuqur hupmat va ehtirom bilan qarasa, u bilimli sanalib, kishilar orasida obro'-e'tibor qozonadi. Oramizda so'z boyligi kam, tili qashshoq, so'zlar qovishmagan, o'z fikrini aniq ifoda etolmaydigan yoshlar ham uchrab turadi. Ba'zi yoshlar orasidagi ruscha, ayrimlari esa ko'pchilik tushunmaydigan so'zlarni qo'shib odamlar orasida gapiradilar. Yoshlikdan badiiy adabiyotga mehr qo'yish, uni o'qishga ko'nikma hosil qilish va ko'p o'qish va o'z fikrlarini kerakli joyda to'g'ri ayta bilishi yuksak ma'naviyatlikni, boy, go'zal, ta'sirchan tilga ega bo'lismi ta'minlaydi. Kishi dunyoga mukammal inson bo'lib kelmaydi. U tug'ilboq ertak yoki dostonlardagi qahramonlardek aqli, dono, bilimdon bo'lib qolmaydi. Inson tevarak atrofdagi narsa va hodisalarga, odamlar orasida, tabiatning go'zal qo'ynida, hayvonot dunyosi, parranda-yu hashoratlar, turli-tuman voqe'a-hodisalar qurshovida, ular bilan muloqotda bo'ladi, o'sib ulg'ayadi va kamol topadi. Yaxshilardan ibrat oladi, yomonlardan nafratlanadi. Shuning uchun inson yaxshilik, ezungulik sari intiladi. Bu intilishlarni bola ilk va kichik yoshligidan boshlab o'ziga o'zlashtirishga intiladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar ko'ngil ochishni, ermakni xoxlaydilar. Chunki bu narsalar ular xayoti davomida tabiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar hamma narsani o'yin va so'zlar orqali o'zlashtiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan muloqot qilganida ularga o'z ona tillarining har tomonini ya'ni nozik taraflarini ham o'rgatib boradi. Chunki so'z orqali bola hayoti borasida muloqot qiladi, fikrlash doirasasi kengayadi va tili ravon, aniq so'zlashga moslashib boradi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar so'z, ibora va gaplarni qiziqib o'rganadilar hamda osongina eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi endi shakllanib borayotgan paytda bunday mashg'ulotlar ularning xayotiga yo'l ochib beradi. Kichik yoshdagi bolalarga tarbiyachi so'zlarni o'rgatayotganida o'yinlar orqali murojaat qilish ayni muddao hisoblanadi. O'yin orqali bola o'zining lug'at boyligini kengaytirib to'playdi. Lekin kichik yoshdagi hamma bolalar ham o'rganayotgan so'zlearning ma'nosini to'g'ri tushunmaydilar. Ularni tushuntirish ota-onalar bilan tarbiyachining vazifasiga kiradi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar uchun sodda va qiziqarli o'yinlar, tez aytishlar, ertaklar aytib berish yoki suratlarga qarab ertak o'ylab topish, she'r va ashulalarni yod olish ham katta samara beradi. Tarbiyachi o'z mashg'ulotlarini shunday o'tish kerak-ki, bolaning o'z tasavvur olamlarida bu narsalarni xayolan hosil qilishlari kerak. Kichik yoshdagi bolalar uchun chiqarilgan ertak kitoblar turli-tuman rangli va qiziqarli suratlarga boy bo'lishi darkor. Bunday kitoblarni ko'rgan har qanday bolaning adabiyotga qiziqishi ortadi hamda talab ham kuchayadi. Bolalar uchun yaratilgan kitoblarda atrofimizdag'i bizni o'rab turgan yashil va jumboqli tabiatni asrab-avaylashga, hayovanot dunyosini bilishga va sevishga, murg'ak qalblarini mehrga to'ldiradi, onqlarini rivojlantiradi. SHular asosida bolaning lug'at boyligi ortadi va nutqini o'stiradi. Qiziqarli ertak va hikoyalar bolaga yaxshi ta'sir qiladi va yaxshi-yomonni farqlashga o'rgatadi. Yod olingen kichik xajmdagi she'r va qo'shiqlar bolaning nutqini ravon, aniq va sodda qilib ifoda etishni shakllantiradi. Tarbiyai bolalarda tabiatga mehr uyg'otishda daraxtlar qushlar yoki boshqa narsalar haqidagi kichik xajmdagi she'rlarni yod oldirishi va ularning mazmunini tushuntirishlari maqsadga muvofiqdir. Qushlarning insonlarga foyda keltirishi shu kichik she'r orqali ifodalanganini aytish zarur. She'rni yoki qo'shiqni aytishdan oldin ular haqidagi rangli rasmlarni ko'rsatib o'tish va suhbatlashish shart. SHundagina bolaning tasavvuri, hayolot olami kengayib boradi.



Maktabgacha kichik yoshdagи bolalarning og’zaki nutqini rivojlantirish yoki o’stirishda ertak, afsona, dostonlarning roli katta. Bunday asarlarda so’zlar aniq, sermazmun, to’g’ri, jumlesi sodda va bola xotirasiga qabu qila olishiga mo’ljallangan qilib yoziladi. Tarbiyachi nutq o’stirish mashg’ulotlarida shunday adabiyotlardan foydalanishlari darkor. Hozirgi chop etilayotgan deyarli barcha kitoblar bolaning qanday yoshda ekanligini hisobga olgan holda tuzilgan hamda ertakning mazmunini tushunishga yordam berish bilan birga nutq madaniyatining tarkib topishida ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. Maktabgacha kichik yoshdagи bolalarning nutqini o’stirish yuzasidan xalq tomonidan yaratilgan maqollar, topishmoqlar, tez aytishlarni tarbiyachi o’z mashg’uloti orqali bolaga yetkazadi. Tarbiyachining o’zi ham qanday mashg’ulot o’tishidan qat’iy nazar aniq, ravon, ifodali, sodda va bola tushunadigan ohangda so’zlashi darkor.

O’yinlar orqali bolaning xotirasida yaxshi ta’ssurot qoldirish mumkin. Bunday mashg’ulotlarni o’tishda tarbiyachining bilim va mahoratiga ham bog’liq. O’yinni ham boshidan oxirigacha tarbiyachi so’zlarini to’g’ri va ravon qilib so’zlaydi. Bola o’zining tilida emas balki kattalarga taqlid qilgan holda muloqot qilishga harakat qiladi. Og’zaki nutqi rivojlangan bolakay o’z fikrini ham to’g’ri ifodalay oladi. Nutqining boy, sermazmun bo’lishidagi asosiy shartlaridan biri aytilgan so’zning to’g’ri talaffuz qilishidir. Agar bolakay so’zlardagi ba’zi xarflarni ayta olmasa bunday bola bilan maxsus mutaxassis (logoped, defektolog) shug’ullanishi zarur.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro’yxati:**

- 1.Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
- 2.P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.



BOLALARNI ERTAKLAR SAHNALASHTIRISHDA BADIY ADABIYOT BILAN  
TANISHTIRISHGA QO’YILGAN DAVLAT TALABLARI

Xalilova Saboxat Isroiljanovna  
Uychi tuman 24-MTT tarbiyachisi.  
Tel: 99-33528- 87- 88

**Annotatsiya:** maqolada mактабгача та’лим ташкilotida bolalarga badiiy adabiyot orqali dunyoni badiiy tasavvur etish yo’llari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, badiiy adabiyot, aqlan, axloqan, badiiy asarlar, o’zaro munosabat, hikoya, bola.

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko’rsatadi. She’riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg’ular va o’zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o’z tas’ir kuchiga ko’ra turlicha bo’ladi: hikoyalarda bolalar so’zlarning lo’ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she’rlarda o’zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligini ilg’aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliliginamoyon qiladi, ona tilidagi nutqning humor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko’rsatadi. Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg’urishni o’rganganlaridan so’ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg’ulari – birovning dardiga shyerik bo’lish, yaxshilik qilish,adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko’rsatish qobiliyati uyg’ona boshlaydi. Bu printsipliallik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. «His-tuyg’ular bilimdan oldin keladi; kimki haqiqatni his qilmagan bo’lsa, u uni tushunmagan va tanimagandir». Xalq – bolalarning betakror o’qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hyech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko’ra bir-biridan zo’rg’ a farq qiladigan so’zlarni hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik humor, sanoq she’rlar – pedagogik ta’sir ko’rsatishning samarali vositasи, dangasalik, qo’rroqlik, o’jarlik, injiqlik, faqat o’zini o’ylash (egoizm)kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o’z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o’zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar. Va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o’qib chiqilgan asarlar bo’yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O’qib chiqilgan asar bo’yicha haddan tashqari ko’p nasihat qilish katta, ko’pincha esa tuzatib bo’lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko’z o’ngida o’zining barcha jozibadorligini yo’qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqlishi yo’qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to’liq tayanish zarur. K.D.Ushinskiy shunday yozadi: «Bola ona tilini o’rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o’rganmaydi. Balki ona tilining ona ko’kragidan ma’naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hyech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hyech qanday tarixchi bunga qodir emas; U bolani xalq udumlari, xalq she’riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hyech bir estetik bunga qodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, albatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas». Buyuk pedagogning ushbu so’zlarida nafaqat ona tilini o’zlashtirish natijalari, balki uni o’rganish metodi: «nafaqat ko’p narsani o’rgatadigan, balki hayron qolarli darajada oson, qandaydir yetishib bo’lmaydigan metod asosida o’qitadigan» o’qituvchi tiliga ishonch ko’rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, o’qituvchi har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o’zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo’yadi. Yosh o’sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-



syekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

### 1.3. Maktabgacha ta'lim muassalaridabolalarni ertak bilan tanishtirish

Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayat tasviri fantastik elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Tarbiyachi bolalarni ertak bilan amaliy tanishtiriladi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgu kuchning - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi, bolalarni o'ziga tortadi.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasи, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqlarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy,adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi.

Ertakning pedagogik qimmati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayatda ham doim shunday bo'lishini istaydilar.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.

### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING  
BADIY XUSUSIYATLARI

Xudoyqulova Shoira Jo‘raqulovna,  
Navoiy viloyat Karmana tuman 3-maktab  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

“Hayrat ul-abrор”даги хикоятларда турли мавзулар қаламга олинганидек, улардаги образлар ham xilma-xildir.

Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o’nlab so’fiy, shayxlar, hukmdorlar, an’anaviy образлар va turli toifa kishilarini timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog’liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar образлари tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi образлар haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog’lanadi, ularning orasida “sof” to’qima образлар ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo’lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobjiy to’qima bilan yo’g’ilib, allaqachonlar an’anaviy adabiy образларга aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflatun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San’o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an’anaviy oshiq-ma’shuqlar. Bu an’anaviy образлар bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko’ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abrор”даги “Shoh G’oziy” hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyasida Amir Temur образлари berilgan”<sup>1</sup>

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo’lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o’qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba’zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo’lida tahsil ko’rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in’om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar “Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan” deyishadi.

Ikkinci hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o’zini islom yo’liga bag’ishlagan mashhur so’fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo’liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko’plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.<sup>2</sup>

Robia Adviya (Adaviya) ham mashur so’fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oralig’ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to’rtinch farzand bo’lgani uchun unga “Robia” deb nom qo’yishgan.

To’rtinch maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so’fiylardan. O’z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo’lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hiroting Ko’handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonardonida tavallud topgan.

O’n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. “Faxriddin Roziy (to’liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O’n sakkizinch maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqt образлари bor. Yoqt – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag’dodda Abbosiya xalifa Musta’sim davrida yashagan. “Qur’oni ko’chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so’fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o’z davrining yagonasi, nurlar matla’i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug’ shayxlarning ustozi, oriflar yo’lboshchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur’onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg’ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.

2 Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.



sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo’lsa, ba’zilari afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga “Shoh G’oziy” haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G’oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy “Xamsa” dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. “Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisini ham unga bag’ishlaydi. “Shoh G’oziy” hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko’rsatadi.

“Hayrat ul-abror”da “No’shirvon hayosi” bilan bog’liq hikoyat mavjud. Unda No’shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. “Sharq xalqlari kitobiya adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an’anaviy obrazlardan biri No’shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No’shirvon nomini odilllik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to’g’risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar “Hayrat ul-abror” va “Tarixi muluki Ajam”dan o’rin olgan”.<sup>1</sup>

Dostondagi “Ikki vafoliq yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko’ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o’rnatuvchi) kabi qator ulug’ va qutlug’ nomlar bilan ham tilga olinadi.

O’n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta’kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandat Qur’onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O’n to’qqizinchi maqolatdan so’ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko’pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to’rtinchı dostoni – “Sab’ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go’r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o’g’li. Yaman shohi No’mon va uning o’g’li Munzir tarbiyasida o’sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonlarida Bahrom Go’r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma’lumotlarga ko’ra, Bahrom Go’r 63 yil (ba’zi manbalarda 70 yil) umr ko’rgan”.<sup>2</sup>

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo’lib ular tarixiy, afsonaviy, an’anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog’liq.

1 Mallayev N . Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

2 O’zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.



## ОЛИЙ ТАЪЛИМДА МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ БҮЙИЧА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Дониев Э.Т.

ТАТУ Қарши филиали “Телекоммуникация инжиниринг”  
кафедраси доценти тел.+99890 7333342 e-mail erkin52@mail.ru

**Аннотация:** Таълим тизимида олиб борилаётган ислохотларнинг муҳим йўналишларидан бири замонавий ахборот-коммуникацияларидан фойдаланиб масофавий таълимни амалга оширишdir. Кисқа вақт ичидаги масофавий таълим ўзининг афзалликларини кўрсатди. Шу билан бирга, айrim муаммолари ҳам намоён бўлиб қолди. Ушбу муаммоларни ҳал этиш бўйича тажрибаларни умумлаштириш ҳақида мулоҳазалар билдирилган.

**Калит сўзлар:** мамлакат тараққиёти, мутахассислар салоҳияти, олий таълимни ривожлантириш концепцияси, масофавий таълим, тажрибани умумлаштириш.

Ҳар қандай мамлакатнинг ижтимоий-иктисодий тараққиёти, аҳолисининг моддий фаровонлиги, жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътибори мамлакат ҳудудидаги мавжуд моддий ресурслардан фойдаланиш даражаси, ишлаб чиқариш кучларининг ривожланганлиги, географик жойлашуви, хорижий мамлакатлар билан ижтимоий-иктисодий алоқаларнинг йўлга қўйилганлиги ва шу каби қатор омилларга, айниқса, мутахассислар салоҳиятига кўп жиҳатдан боғлиқdir. Шу сабабли, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари учун зарур бўлган юқори малакали мутахассислар тайёрлаш ҳар қандай мамлакат, шу жумладан республикамиз ижтимоий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” да олий таълим тизимини ривожлантиришнинг қатор стратегик мақсадлари, жумладан, таълим жараёнига раҳамли технологиялар ва замонавий усусларни жорий этиш белгилаб қўйилган. /1/.

Таълимда замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш масофавий таълим тизимини йўлга қўйиш имкониятини яратиб берди. Ҳозирги вақтда олий таълим муассасалари таълим жараёнини олиб бориша Moodle, Reading тизимларидан кенг фойдаланмоқдалар. Масофавий таълим платформасидан фойдаланиш, айниқса, пандемия шароитида олий таълим тизимини тўхтовсиз фаолият кўрсатишига имконият яратиб берди.

Маълумотларга кўра, карантин пайтида ўқитувчиларнинг 84 фоизи, ўқувчи ва талабаларнинг 73 фоизи ҳамда ота-оналарнинг 68 фоизи онлайн таълим туфайли стрессдан азият чеккан. Мактаблар ҳам, университетлар ҳам онлайн ўқитишга тўлиқ тайёр бўлмагани учун таълим шакли ўзгариши фавқулодда кўплаб муаммоларга сабаб бўлди. /2/.

Гарчи масофавий таълим масаласи ўтган асрнинг 80 йилларидан бошлаб педагогикага кириб келган бўлса-да, жаҳоннинг етакчи олий таълим муассасалари ҳам бу масалага етарлича эътибор қаратмаган эдилар. Пандемия масофавий таълимни кескин ривожланишига кучли туртки бўлди.

Шу билан бирга, таълимда масофавий тизимни жорий этиш учун айrim ташкилий, техник ва психологияк муаммоларни ҳал этиш зарурлиги кўриниб қолди.

Республикамизнинг барча ҳудудларини Интернет билан тўлиқ қамраб олинмаганлиги, Интернет тезлигининг нисбатан пастлиги, Интернет трафикининг талабалар учун нисбатан қимматлиги, қишлоқ жойларда электр энергиясида содир бўлалигига вақтинча узилишлар масофавий таълим сифатига муайян даражада таъсир этди. Бепул трафик бўйича “Zoom” платформасида ўтиладиган дарслар жуда қисқа муддатли бўлгани учун, ўтиладиган мавзуларнинг асосий элементларига эътибор қаратилди, мавзуни ўрганишда ўқитувчи ва талаба орасида кучайтирилган алоқа ва тескари алоқани йўлга қўйишга имкон бўлмади. Бу, албатта, менинг педагогик тажрибамдан келиб чиққан шахсий мулоҳазаларим. Олий таълимда фаолият кўрсатиб келаётган ҳурматли педагогларимизнинг тажрибаларида балки бошқача натижа кузатилгандир.

2022-2023 ўқув йилида масофавий таълим шаклига бакалаврлар тайёрлаш бўйича талабаларни ўқишига қабул қилиш квотаси белгиланган.

Шунга кўра, тажрибаларни ўртоқлашиш, умумлаштириш, бўлажак малакали мутахассис



кадрлар тайёрлашдек улуғ умумий ишимизни янада такомиллаштириш зарур деб ҳисоблайман.

Шунингдек, Америка ва Россия олимлари ҳамкорликда тадқиқот ўтказиб, техник фанлар ОТМлари мисолида талабаларни онлайн тайёрлаш ўқитишнинг ананавий шакллари сингари самарали бўлиши мумкинлигини исботлаб беришди. /3/.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”ни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони. 2019 йил 8 октябрь. –nrm.uz.
2. Шарипов А. Таълим ислоҳатлари: анъанавий ёки оғлайн – қай бири афзал? 2021 йил, 5 август - <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/9570/>
3. [http://www.vokrugsveta.ru/news/332180/?utm\\_source=facebook.com&utm\\_medium=social&utm\\_campaign=uchenyе-vshe-sovmestno-s-amerikanskimi-kol](http://www.vokrugsveta.ru/news/332180/?utm_source=facebook.com&utm_medium=social&utm_campaign=uchenyе-vshe-sovmestno-s-amerikanskimi-kol).



## ИЖОДИЙ ҲАМКОРЛИК КОНЦЕПЦИЯСИ

Игамбердиева Шахноза Адхамовна

Фарғона давлат университети

Амалий инглиз тили кафедраси ўқитувчиси

Телефон: +998936444089

sigamberdieva80@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** Ушбу мақолада бўлажак хорижий тил ўқитувчиларини ижодий ҳамкорлик кўнималарини ривожлантириш масалалари, мазкур жараёнда “бит-дарс” технологиясидан фойдаланиш самарадорлиги хусусида фикр юритилган,

**КАЛИТ СУЗЛАР:** бўлажак хорижий тил ўқитувчиси, “бит-дарс”, технологияси, ижодкорлик, ижодий ҳамкорлик, ҳамкорлик педагогикаси.

